O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

# «TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI »

# MODULI BO'YICHA

# O’QUV-USLUBIY MAJMUA

BUXORO – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi  Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan **pedagogik faoliyat bilan shug’ullanishi uchun mo’ljallangan** pedagogik qayta tayyorlash 4 oylik kursining  Namunaviy o‘quv reja va dasturiga  muvofiq ishlab chiqilgan.

Ishchi o‘quv dasturi Buxoro davlat  universiteti Kengashining 2024 yil 27-dekabrdagi 5– sonli yig’lish qarori bilan tasdiqlangan.

**TUZUVCHI:** Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi **M.L.Umedjanova**

**TAQRIZCHI:** **SH.SH.Olimov** Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi mudiri p.f.d., professor

**O`quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024 yil  27-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

**MUNDARIJA**


| | |
|---|---|
| I | ISHCHI DASTUR |
| II | MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI |
| III | NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI |
| IV | AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI |
| V | GLOSSARIY |
| VI | ADABIYOTLAR RO’YXATI |
| VII | NAZORAT SAVOLLARI |

ISHCHI DASTUR

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi nopedagog kadrlarni pedagogik qayta tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini Davlat talablari va jahon ta’lim standartlari darajasiga ko‘tarish, yangilash, islohotlar davrining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, shuningdek 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ta’lim tizimi pedagoglarining kasbiy mutaxassislikni egallagan bo‘lishi, pedagog mutaxassislarga qo‘yiladigan davlat talablarini bilishi, zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishi hamda amalda qo‘llay olishi, talaba shaxsi va uning xususiyatlarini hisobga olgan xolda ta’limda individuallik va differensial yondashuvga erishishi, ta’lim tizimida muammoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi va ta’limning innovatsion hamda interfaol metodlarini qo‘llay olishi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olishiga o‘rgatish dasturning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Nopedagog kadrlarni pedagogik qayta tayyorlash mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma’lumotini ta’limning tegishli turi bo‘yicha Davlat ta’lim standarti (Davlat talablari) mazmunida belgilangan o‘quv-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini ta’minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo‘lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

### Kursning maqsad va vazifalari:

**Kursning maqsadi** – Respublika ta’lim muassasalari uchun nopedagog kadrlarni bazaviy kasbiy ma’lumotini ta’limning tegishli turi bo‘yicha Davlat ta’lim standarti (Davlat talablari) mazmunida belgilangan o‘quv-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini ta’minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo‘lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashgan mutaxassislarni qayta tayyorlash.

**Kursning vazifalari** – kursda jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya masalalari, ta’lim to‘g‘risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlar, ta’lim menejmenti, umumiy pedagogika va psixologiya fanlarining ilmiy nazariy asoslari, o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, ma’naviy-ahloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish tamoyillari, ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar, kreativ pedagogika va pedagogik kompetentlik, o‘zaro munosabatlarda etika meyorlari va nutq madaniyati, talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkiliy va metodik tashkil etish mezonlari, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

### 1.2. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” modulini o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar

- “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- tarbiyaviy ish mazmuni, shakl, metod va vositalari; insonparvarlik tarbiyasi; tarbiyaviy ishlarni tashxis etishning mohiyatini **bilishi kerak;**

- tarbiyaviy ishlarni tashkil eta olish; tarbiyaviy ish metodlarini tanlay olish; tarbiyaviy ish shakl, metod va vositalarini qo‘llay olish; tarbiyaviy ishlarni tashxis etish **ko‘nikmalarini egallashi kerak;**

ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish; tarbiyaviy tizimni tarkib toptirish **malakalarini egallashi kerak.**

***1.3. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” modulining boshqa modullar bilan aloqasi.***

Dasturni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarl”rida jamiyat rivojida ta’lim–tarbiya masalalari, Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishningmeyoriy - huquqiy asoslari, ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni moderni zatsiyalash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish , umumiy pedagogika, Umumiy psixologiya, Pedagogik mahorat, Nutq madaniyati, Pedagogik innovatika, Pedagogning kasbiy kompetentligi modullari bilan o‘zaro aloqada olib boriladi.

***1.4. Moduli o‘qitishdagi yangi texnologiyalar.***

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” modulini o‘rganishda kompyuter o‘qitish texnologiyasining axborot va boshqa usullari pedagogik vaziyatlarni shakllantirish, pedagogika mazmunining rasmiy jihatlari, o‘quv tadqiqot vazifalari va ko‘rgazmali ashyolar, didaktik o‘yinlar qo‘llaniladi. Shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanmalari so‘rovnomalar pedagogik ensiklopediya va lug‘atlar, ma’ruza mantlari, tarqatma materiallar, ta’limning texnik vositalari kabilardan foydalaniladi.

**2.1.“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” modulidan ma’ruza mavzularining nomi, ularning mazmuni, ajratilgan soatlar miqdori.**

| № | Mavzular nomlari | Ma’ ruza | Amaliy | Jami |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tarbiya tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari. | 2 | 2 | 4 |
| 2. | Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari, mazmuni va mohiyati. | 2 | 2 | 4 |
| 3. | Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati. | 2 | 2 | 4 |
| 4. | Tarbiya texnologiyalari. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv. | 2 | 2 | 4 |
| 5. | Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. | 2 | 2 | 4 |
| 6. | Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari. | 2 | 2 | 4 |
| 7. | Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash. | 2 | 2 | 4 |
| 8. | Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va o’quv faoliyati samaradorligini oshirishda guruh rahbarining o‘rni. | 2 | 2 | 4 |
| 9. | Ta’lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. | 2 | 2 | 4 |
| 10. | Oila, mahalla va ta’lim muassasasining bola tarbiyasidagi o‘rni. | 2 | 2 | 4 |
| | **Jami** | **20** | **20** | **40** |

**1-mavzu. Tarbiya tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari. (2 soat)**

Tarbiyaviy ish metodikasi moduli haqida tushuncha. Tarbiyaviy ish metodikasi modulining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodikasi modulining boshqa modullar bilan aloqasi.

**2-mavzu. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. (2 soat)**

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Tarbiyaviy ishlar metodikasi modulini o‘rganishning umumiy masalalari. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi.

**3-mavzu. Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati. (2 soat)**

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish va rivojlantirish.Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o‘rni. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

**4-mavzu. Tarbiya texnologiyalari. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv. (2 soat)**

Tarbiya texnologiyasi asoslari. Tarbiya texnologiyasining mazmun mohiyati. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

**5-mavzu. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. (2 soat)**

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari. Tarbiyada rag’batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o’rni.

**6-mavzu. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari. (2 soat)**

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni shakllantirishda oila hamda jamoatchilikning o‘rni.

**7-mavzu. Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash. (2 soat)**

Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish. Guruh rahbarini tarbiyaviy ishlarini yo‘lga qo‘yish metodikasi. Jamoani shakllantirishda guruh rahbarining o’quv faoliyati samaradorligini oshirish yo’llari.

**8 -mavzu. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va o’quv faoliyati samaradorligini oshirishda guruh rahbarining o‘rni.**

**. (2 soat)**

Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh rahbarining talabalar va ota – onalar bilan olib boradigan ishlar mazmuni.Guruh rahbarini tarbiyaviy ishlarini yo‘lga qo‘yish metodikasi.

**9-mavzu. Ta’lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. (2 soat)**

Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Ta’lim muassasalarida to‘garak ishlarini tashkil etish. Ta’lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. O‘quvchilarni bilimga bo’lgan qiziqishlarini oshirish usullari. Sinf rahbarining tarbiyasi og’ir o’quvchilar bilan ishlash usullari.

**10-mavzu. Oila, mahalla va ta’lim muassasasining bola tarbiyasidagi o‘rni. (2 soat)**

Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta’lim muassasalarning o‘zaro bog‘liqligi va uni yo‘lga qo‘yish shakl, metodlari. Ota-onalar majlislarini tashkil etish. Oila tarbiyasining mohiyati.

## 2.2. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI.

**1-mashg‘ulot: Tarbiya tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari. (2 soat)**

Tarbiyaviy ish metodikasi moduli haqida tushuncha. Tarbiyaviy ish metodikasi modulining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodikasi modulining boshqa modullar bilan aloqasi.

**2-mashg'ulot: Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari mazmuni va mohiyati. (2 soat)**

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Tarbiyaviy ishlar metodikasi modulini o'rganishning umumiy masalalari. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi.

**3-mashg'ulot: Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati. (2 soat)**

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish va rivojlantirish.Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

**4-mashg'ulot: Tarbiya texnologiyalari. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv. (2 soat)**

Tarbiya texnologiyasi asoslari. Tarbiya texnologiyasining mazmun mohiyati. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

**5-mashg'ulot: Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. (2 soat)**

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o'rni.

**6-mashg'ulot: Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari. (2 soat)**

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni shakllantirishda oila hamda jamoatchilikning o'rni.

**7-mashg'ulot: Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash. (2 soat)**

Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish. Guruh rahbarini tarbiyaviy ishlarini yo'lga qo'yish metodikasi. Jamoani shakllantirishda guruh rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.

**8-mashg'ulot: Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda guruh rahbarining o'rni. (2 soat)**

Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh rahbarining talabalar va ota – onalar bilan olib boradigan ishlar mazmuni.Guruh rahbarini tarbiyaviy ishlarini yo'lga qo'yish metodikasi.

**9-mashg'ulot: Ta'lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. (2 soat)**

Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Ta'lim muassasalarida to'garak ishlarini tashkil etish. Ta'lim muassasasida tarbiyaviy

tadbirlarni tashkil etish. O‘quvchilarni bilimga bo’lgan qiziqishlarini oshirish usullari. Sinf rahbarining tarbiyasi og’ir o’quvchilar bilan ishlash usullari.

**10-mashg‘ulot: Oila, mahalla va ta’lim muassasasining bola tarbiyasidagi o‘rni. (2 soat)**

Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta’lim muassasalarning o‘zaro bog‘liqligi va uni yo‘lga qo‘yish shakl, metodlari. Ota-onalar majlislarini tashkil etish. Oila tarbiyasining mohiyati.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: 2017. - 48 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviyma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” PQ-3160-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyundagi “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqidan.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni PF - 4947-son, “Xalq so‘zi”, 2017 y., 28 (6722)-son.

### II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida”. 2020 yil 23-sentabr. https://lex.uz/docs/-5013007
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022 — 2026-yillarga Mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 5789-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 15 sentabrdagi PQ-3276-sonli qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.
16. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 yildagi 1059-sonli Qarori.

**III. Maxsus adabiyotlar**

17. S.Otamurodov., S.Xusanov. Ma’naviyat asoslari. Ma’ruza matnlari. -T:, 2000.
18. Sh.Paxrutdinov, S.Saidolimov, D.Mamatqulov. Milliy g‘oya va ma’naviyat
asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent 2017.
19. Ishmuxamedov S.R, Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.
20. Maxsudov P.M., Kasbiy pedagogic faoliyatning nazariy asoslari. Ilmiy-metodik jurnal 2020-yil.
21. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amali-yoti. - T.: "San’at standart", 2017.
22. Bazarov F.O., Ma’murov B.X. Inson resurslarini boshqarish. Ma’ruzalar matni. Toshkent 2016.
23. Axmedova M. T. Pedagogik konfliktologiya (o‘quv qo‘llanma):
O‘zbekistan Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -T.: Adabiёt uchqunlari, 2016. - 319 bet.
24. Alqarov. I.Sh., Kubaeva D.I. “Ta’lim muassasalarida kofliktologiya asoslari”. (1-qism). O‘quv qo‘llanma. Nur Shodibek Nashr. 2022 y. 200 b.
25. Jumaev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari.

O‘quv qo‘llanma. 2015.
26. Yadgarova G., Avlaev O. “Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash metodikasi”.

## 1-MAVZU: TARBIYA TIZIMIDA BARKAMOL INSONNI MA’NAVIY TARBIYALASH MASALALARI.

### REJA:

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta’limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni qayta ko'rib ehiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni havotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to 'g 'risid a”gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlami kamol toptirish, milliy mafkurani shakilantirish, yoshlami boy madaniy merosimiz, tarixiy an ’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlaming samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydaianish lozim.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organiari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalari, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta’sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o ‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini

ta’minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhim.

Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovehi va jismoniy rivojlanishi hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Xullas, tarbiyaning negizida quyidagilar yotadi:

- yoshlami erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o ‘z-o‘zim idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o 'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

~ o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy inkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini tarli sohalarga yo'naltirish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzagi chiqarish va yanada qo’llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hoziflash;

- insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllartirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlash, toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositaari (nohaqlik, yolg'onchilik, tuhmat, thaqimchilikka) keng qo'llanishi lozim.

vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqi, davlati himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, 0 ‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ranizlariga hiurnat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga. Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga liurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o ‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekoiogik ta’lim-tarbiya;

- mustaqil davlatimiz - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to 'g 'ri va xolisona baho berishga o'rgatish.

Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o ‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirifgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to 'g 'ri tushuntirish kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblanmish mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakilantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakilantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim :

- tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e ’tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an’analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchiiar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e ’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

Insonni ma’naviy barkamollik, halollik, o‘zgalarning haqiga xiyonat qilmaslik, sabr-qanoatli, mehr-shafqatli bo‘lish kabi fa-zilatlar bezaydi.

Ahmad Yassaviy nafsni tiyish, poklik bo‘lmasa, «haq yo‘lig‘a» kirib bo‘lmasligini to‘g‘ri ko‘rsatib, insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga e’tiborni qaratdi. «Ma’naviyat» iborasi keng tushuncha bo‘lib, u jamiyatshunos, axloqshunos, huquqshunos, san’at-shunos olimlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratmoqda. Shu jihatdan «ma’naviyat» tushunchasi turlicha ta’riflanadi: «Ma’na-viyat — insonning botiniy va zohiriy xislati», «Ma’naviyat — in-son qalbining nuri», «Ma’naviyat — odamning ruhiy va aqliy olamining majmuasi»ni mujassamlashtiruvchi tushuncha, deb ta’riflanadi.

Ma’naviyat — insonning asosiy fazilatlaridan biri bo‘lib, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u tarbiyaning mahsulidir. Komil inson tarbiyasi qonuniy tadrijiy rivojlanish xususiyatiga ega. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli uning o‘ziga xos dialektik rivojlanish qonuniyatlari mav-jud. Mazkur fanni o‘rganish, o‘zlashtirish, inson kamolotining qonuniyatlarini bilish har bir tarbiyachi, o‘qituvchi uchun shartdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda munosabatlardagi qarama-qar-shiliklar, tarbiyaviy ta’sirchanlikning bir yoqlamaligi, xulq-atvor-dagi qarama-qarshiliklar natijasida inson shakllanib rivojlanadi.

Tarbiyaviy ishlarning salohiyatini oshirish — bola qalbida in-soniy fazilatlarni singdirish koʻp jihatdan tarbiyalanuvchilar-ning ijodiy faoliyatini tashkil qilishga bogʻliq. Ular quyidagi omil-larni qoʻllash asosida vujudga keladi:

• tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealar, jamoadagi tar-tib-qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuvini tarbiyaviy munosabatlar deyiladi;

• tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoit-larni oldindan aniqlab qoʻyilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

• tarbiyachi va tarbiyalanuvchining oʻzaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, munosabat va muloqotda boʻlishlari, ijobiy ruhiy shart-sharoit yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talab-larga javob berishi, tarbiyaviy tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etish omillaridan biridir;

• tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda tarbiyala-nuvchilarning faolligi koʻp jihatdan ixtiyoriylik, fidoyilik, tash-kilotchilik va ijodkorligiga bogʻliq. Har bir tadbirni bola koʻrsin, unda intilish hissi uygʻonsin, shu bilan birga, oʻzining shaxsiy munosabatlarini bildirish imkoni vujudga kelsin;

• tarbiyaviy tadbirlarning ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uygʻun boʻlishi.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas’uliyatli faoliyat boʻlib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta’sir koʻrsatadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining predmeti, boʻlajak tarbiyachi oʻqituv-chilarga kelajak avlodni ma’naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san’ati qirralari, shakl va yoʻllari hamda bilim, ma-laka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi — boʻlajak tar-biyachi oʻqituvchilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta’minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish, tarbiyaviy ta’sirga ega boʻlgan manbalarni ajrata bilish.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining vazifalari:

• oʻquvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini oʻrganib, unga tarbiyaviy ta’sir koʻrsatish mahoratiga ega boʻlishi;

• tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, koʻz-langan maqsadga erishish chora-tadbirlarini koʻra bilishi;

• ilgʻor tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foyda-lanishi;

• tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishni takomil-lashtirish;

• tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o‘z bilimini tadrijiy ravishda rivojlantirish lozim.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligi uchun xizmat qiluvchi milliy manbalar.

Turkistonda milliy uyg‘onishning vujudga kelishi — qonuniy zaruriyat bo‘lib, uning zaminida xalqlardagi mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lish istagi yotar edi. Xalqdagi bunday istakning paydo bo‘lishiga o‘tmishdagi quyidagi nazariy ta’limotlar jiddiy ta’sir ko‘rsatdi:

1. O‘zbek xalqining mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘-lishi natijasida o‘lkadagi milliy, diniy g‘oyalarning keng ro‘yobga chiqishi.

2. Ma’rifatparvarlik yoki jamiyatni yangilashga intilish, jadid-chilik (arabcha «yangi» ma’nosini anglatadi) harakati.

3. Ona tilimiz, uning sofligi va xorijiy so‘zlar iboralaridan ozod qilish uchun kurash.

Milliy uyg‘onishga doir bunday nazariy yo‘nalishlarning maq-sadlari quyidagicha edi:

1. Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og‘zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo‘llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish.

2. Xalqimiz yaratgan milliy urf-odat va an’analarini tiklash.

3. Qur’oni Karim va Hadisi Sharifdagi inson kamoloti haqidagi g‘oyalarni yoshlarga o‘rgatish.

4. Ma’rifatparvar mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o‘rganish, ilg‘or tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi ta’limotlarga amal qilish.

Yuqoridagi milliy tarbiyaning nazariy asoslaridan foyda-lanish orqali, milliy tarbiya xalq ruhi bilan bog‘lanadi. Ma’lumki, milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Rus pedagogi K.D. Ushinskiy o‘zining «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida»gi asarida: «Hamma uchun umumiy bo‘lgan birgina tug‘ma odat borki, hamisha tarbiya shunga tayanishi mumkin, u ham bo‘lsa, xalqning o‘zi yaratgan va xalqchillik asosida qurilgan xalqning tarbiyachilik san’atiga boy merosidan foydalanish ijo-biy ahamiyat kasb etadi», deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirishda:

1. Kasb-hunar kollejining pedagogik jamoasi ta’lim-tarbiya jarayonida sinflar bosqichida o‘qituvchilar shaxsini shakllanti-rishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatishlari va «Namunali o‘quvchi» timsolidan nisbat olishlari va tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashda tashabbuskor bo‘lishlari lozim.

2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi yangi tizim tashki-lotchilari — pedagoglar, ota-onalar va keng jamoatchilikdir. Bo-lalar jamoasida oʻz-oʻzini boshqaruvni yoʻlga qoʻyish muhimdir. Shu bilan birga, tarbiyaviy ishlar jarayonida ilgʻor tajribalarga suyanish, maktabdan tashqari ishlar samaradorligini oshirish.

3. Tarbiyaviy jarayon bir tomondan — ustoz, ota-onalar, oʻqituvchining ta'sirida emas, balki ijodiy va hamfikrlikdagi ta'sir boʻlishi kerak.

4. Tarbiyaviy jarayonni tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi, oila, kollej va mahalla hamkorligida amalga oshirish.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda oqilona reja asosida maqsad va vazifalarni belgilash muhimdir. Tarbiyaviy ishlar jarayoni va tizimi boshqaruvi quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- insonparvarlik;
- uzluksizlik;
- ilmiylik;
- tizimlilik;
- muvofiqlik;
- hayotiylik;
- yosh va bilim saviyasiga moslik.

Bunday tamoyillarga amal qilish tarbiya tizimidagi faoliyat samaradorligini oshiradi. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanini oʻqi-tish quyidagi fanlar bilan uygʻun amalga oshiriladi:

1. «Etnopedagogika».
2. «Pedagogika».
3. «Psixologiya».
4. «Ma'naviyat asoslari».
5. «Siyosatshunoslik».
6. «Milliy istiqlol gʻoyasi» kabi fanlar bilan uzviy bogʻlangan.

## 2-MAVZU: Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari mazmuni va mohiyati. (2 soat)

### REJA:

1. Tarbiya kontseptsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.
2. Kontseptsiya tushunchasining mazmuni.
3. Jahon tarbiyaviy kontseptsiyalari.

**Tayanch tushunchalar:** individ, tarbiya konsipsiyasi, rivojlanish, yosh davrlari.

Ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan barkamol inson mu-ammosi yechimi oilada, maktabda va maktabdan tashqari muas-sasalarda beriladigan ta'lim-

tarbiyasining mazmuni tizimli ravishda ma’lum bir konsepsiyaga mujassamlashtirilgan.

Konsepsiya tushunchasi har bir pedagogik texnologiya, fal-safa, psixologiya, didaktik ta’lim maqsadlariga erishishning ijti-moiy-pedagogik dalillarini o‘z ichiga oladigan aniq ilmiy konsep-siyaga tayanishdir.

Konsepsiya — maqsadga yetishishning xomaki rejasi, mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich kon-sepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi1.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining muhim tomoni, sinf-dan va maktabdan tashqari ishlarni samarali tashkil qilishdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi o‘qituvchilar faoliyatini yuksak saviyada tashkil etish uchun das-turulamaldir.

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda mus-taqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘lga ega bo‘lishi xalq xo‘ja-ligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta’limi tizimida ham o‘sib kelayotgan barkamol avlod yuksak tarbiyasi konsepsiyasini yaratish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Konsepsiya Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI olimlari, Res-publika Ta’lim markazi mutaxassislari va Xalq ta’limi vazirligi xodimlari hamda keng jamoatchilik fikrini inobatga olib tayyor-langan. Konsepsiyada tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari maqsad va vazifalari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy ma’naviy, tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, o‘zini o‘zi idora qila bilishni shakllantirish;
- o‘quvchilarni Vatanning boy ma’naviy merosi bilan tanish-tirish orqali milliy g‘urur hissini tarbiyalash;
- o‘quvchilarning bilimdonligi va ijodiy imkoniyatlarini anglab rivojlantirish;
- insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, millatlararo totuvlik, sami-miy munosabatda bo‘lish;
- shaxsni qadrlash, fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyatni shakl-lantirish;
- mustaqil davlatimizni ko‘z qorachig‘idek asrash va uning is-tiqloli, istiqboli uchun sodiqlik ko‘rsatish;
- o‘quvchilarda mehnatsevarlik, sog‘lom turmush tarzini yara-tish, erkin fikr egasi qilib tarbiyalash — tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning muhim vazifalaridir.

Tarbiyaning asosiy tizimi:

- tarbiya — tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betak-ror, o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e’tiborga olish;
- yoshlarda istak va imkoniyat tuyg‘usini muvaffaqiyatli qaror toptirish;
- milliylikning o‘ziga xos an’analari va vositalariga tayanish;
- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida bir-biriga hurmat munosabatlari, bola-lar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilar-ning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘l-diradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorli-gini oshirishga imkon yaratadi.

Konsepsiyada vatanparvar va baynalmilal komil inson tarbiya-siga alohida e’tibor qaratilgan. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasida fuqarolar birligi, millatlararo hamkorlik, yosh va mus-taqil mamlakatimizning asosiy negizidir. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida shakllanish jarayonida yosh avlodni ja-miyat yangilanishining mohiyatini va zarurligini tushunib yetadi-gan, o‘zi uchun, o‘zi yashab turgan o‘lkaning gullab-yashnashi uchun, uning taqdiri uchun, o‘zga davlat va millat vakillari bilan do‘st-birodarlikni mustahkamlash uchun javobgarlikni his qila-digan darajada tarbiyalash.

Vatanparvarlik — mustaqil O‘zbekiston uchun yanada keng-roq ma’no-mazmunga ega so‘z bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda vatan-parvar bo‘lish — bu iqtisodiyotimizni, mudofaamizni, barcha millat vakillarining do‘stona munosabatini o‘z bilimi, fidokorona mehnati, a’lo o‘qishi bilan mustahkamlashdan iborat.

Har bir o‘quvchi Vatan muvaffaqiyatida o‘zining shaxsiy burchi va mas’uliyatli vazifalari borligini to‘la idrok etsin. Kunda-lik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o‘quv-chilar respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o‘zinikidek qabul qiladigan bo‘lsin. Ularning og‘irligini o‘z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo‘lib ulg‘aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko‘zda tutil-gan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi tub o‘zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini anglab yetsin.

Baynalmilal tarbiya — bizning respublikamiz o‘z mohiyati bilan baynalmilaldir. Shuning uchun yoshlarda baynalmilal-chilik, xalqlar do‘stligi hislarini tarbiyalab borish muhim aha-miyatga egadir.

Yoshlarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do‘stona his-tuyg‘ular uyg‘otish, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maq-sadi yotadi. Bunday his-tuyg‘ularni rivojlantirish asosan taqlid qi-lish orqali mukammallashib boradi. O‘quvchilarning

baynal-milalchilik his-tuyg‘ulari asosini shakllantirishda avvaliga ayrim jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakillari bilan uch-rashuvlar o‘tkazish; ular bilan yozishmalar olib borish; maxsus mashg‘ulotlarda ularning urf-odatlari, madaniyati, san’ati, tabiati to‘g‘risidagi adabiyotlarni o‘qib berish, suhbat o‘tkazish, rasmlarni ko‘rsatish, diafilmlar namoyish qilish, millat bolalari hayoti to‘g‘risidagi, turli millat kishilarining mehnati va turmushi haqi-dagi hikoyalardan o‘qib berish orqali shakllanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qi-lish Konsepsiyasiga barkamol avlodga xos axloqiy sifatlarni tar-biyalashda alohida e’tibor qaratilgan.

1. Huquqiy tarbiyaga oid quyidagi bilimlarga ega bo‘lish lozim:

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Senati,

Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va boshqa davlat boshqaruv organlarining mohiyati va aha-miyati huquqiy maqomlarining kishilar kundalik hayotida kerakligi;

— O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini muhofaza qilish muassasalarining tashkiliy tuzilishi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bolalar huquqlari Konvensiyalari haqida bilimlarga ega bo‘lish kerak.

Konsepsiyada iqtisodiy, ekologik, estetik, jismoniy, mehnat-sevarlik tarbiyalarining mazmun-mohiyati, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar jarayoni, foydalanish chora-tadbirlari haqida bilim beriladi. Konsepsiyada:

- iste’dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash;
- mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
- maktabda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish kabi bo‘-limlarning mohiyati va mazmuni berilgan.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsep-siyasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish mu-himdir. Bu masalaga olimlardan J. Hasanboyev, X. To‘raqulov, I. Asqarov, N. Usmonovlar «Pedagogika» darsligida «Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari»da quyidagilarga e’tibor berishgan:

- Tarbiyada yaxlit yondashuv orqali axloqiy, g‘oyaviy, este-tik, jismoniy, iqtisodiy tarbiyaning birligi va uni uzviy ravishda amalga oshirish.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayoni:

- yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqa-rashni tarkib toptirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lish;
- axloqiy me’yorlarni anglash, o‘zaro hurmat va adolatli bo‘lish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish maqsadining aniqligi. Barkamol shaxs tarbiyasida zamonaviy talablar asosida yondashuv. Ular:

- o‘qituvchining bolalar bilan ma’naviy madaniyatning eng yaxshi namunasini izlash. Kattalar hayotiy tajribalari va shaxsiy namunalari orqali ta’sir ko‘rsatish;
- o‘zini o‘zi anglash, tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qa-rashlar, hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga olib keladi.

2. Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarda iroda, erkinliksiz tarbiya g‘oyalarini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchi ma’naviyati boyitilsa, bolaga faoliyat ja-rayonida istak va xohish shakllariga keng o‘rin berilsa, o‘ylagan maqsadga erishish mumkin. Jamoatchilik bilan hamjihatlikda tarbiyaviy mashg‘ulotlar ijobiy ta’sir etishi Konsepsiyada qo‘yilgan vazifalarni bajarishga shart-sharoit yaratadi.

## 3-MAVZU: TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.

**REJA:**

1. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasining mohiyati.
2. O‘qituvchi muomala subyekti sifatida.
3. O‘qituvchi faoliyatida muomalaning ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar: tarbiya jarayoni, muomala, muomala subyekti.**

Pedagoglarning talabalar bilan bevosita muomalasini ularga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Muomala — axborot jarayonidir. Axborot ikki yo‘nalishda: boshqarish sub’ektidan (pedagogdan) boshqarish ob’ektiga (talabalarga) boradi va aksincha — ob’ektdan sub’ektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan, o‘z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning talabalarga murojaat tarzida singib, kirib boradigan axborotni ma’lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, talabaning shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g‘oyat xilma-xil sharoitlarda va ko‘rinishlarda o‘rganishga imkon beradi. U shaxsning hulq-atvorida namoyon bo‘ladigan yorqin va eng ta’sirchan tashqi belgilarnigina qayd etish imkonini beradi. Pedagog talabalar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo‘ladi, bu detallar sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo‘lmay, shaxsda sodir bo‘layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo‘lgan zarur ichki jarayonlarning ko‘rinish alomatlari bo‘lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo‘lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Talabalar bilan bevosita muomala pedagogga jamoadagi, yoki ayrim talabalardagi biron-bir voqeani rivojlanish jarayonini o‘rganish zarur bo‘lganda, ro‘y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning tuzilishi, paydo bo‘lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada takomillashishi to‘g‘riligini ma’lum darajada oldindan aytib berish kerak bo‘lganda ham zarurdir. Biroq, muomala usullarida «axborot shovqini» ancha ko‘p bo‘lib, u ko‘p, yoki oz darajada axborot tashuvchi bo‘lishi mumkin. Bu hol birinchi navbatda pedagog bilan talabalar o‘rtasida qaror topgan munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin pedagogning shaxsi ham katta rol o‘ynaydi.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zuhur qilinishidagi farq uning shaxs o‘tmishidagi tajribasiga bog‘liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jihati bor: umumiy - hayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va real jamoa, muayyan talabalar bilan muomalada bo‘lish tajribasi. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo‘lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamlik darajasi, pedagogning o‘zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

Ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyat kishini o‘zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa uning o‘z sheriklari ahvolini fahmlab, bilib olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi.

Nihoyat, pedagogning talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u talabalarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma’no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o‘zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va talabalarning hulq-atvorini o‘rganish usullaridan foydalanadi. Bu narsa pedagogik faoliyatida, ayniqsa, sezilib turadi. Bu qonuniy bir holdir, chunki «biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bo‘lar ekanmiz, ularning hulq-atvorini bilib olamiz, chunki biz uni go‘yo o‘qiganday bo‘lamiz, ya’ni xulq-atvorning tashqi ko‘rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo‘lgan, o‘zining ichki psixologik rejasiga ega bo‘lgan tekstning ma’nosini ochib beramiz. Bu «o‘qish» yo‘l-yo‘lakay bo‘ladi, chunki atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda ularning xulqiga doir ma’lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo‘lgan psixologik tagma’no hosil bo‘ladi.

O‘qituvchining talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o‘rnini to‘ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. SHu munosabat bilan tarbiya diskret (uzlukli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. Talabalar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta’sir qiluvchi tevarak atrofdagi voqelikning ko‘pdan-ko‘p omillari bir-biri bilan etarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga

ega emas. Har bir talabaga har xil ta'sirlar oqimi etib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda pedagogning talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida shu narsada namoyon bo'ladiki, u ma'lum darajada bu ta'sirni birlashtiradi, ularning zanjiridagi etishmovchi xalqlarning o'rnini to'ldiradi, bu ta'sirning ziddiyatli tarkibiy qismlariga tuzatish kiritadi. SHubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo'ladi. Lekin pedagogning o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatiladigan turli-tuman ta'sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta'sirni birlashtirish, o'rnini to'ldirish va unga tuzatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatlari, talabalarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo'lgan muomalaning samaradorligi ko'p yoki oz darajada bo'lishi mumkin.

Boshqarish vositasi bo'lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala, munosabatlar tizimi doirasida sodir bo'ladi. Bunga sabab shuki, muomala pedagoglarning talabalar faoliyatini tashkil etishi jarayonida ham va ular bilan bevosita muomala qilishda ham amalga oshiriladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan oldin bo'ladi, pedagoglar bu faoliyatga talabalarni jalb qiladilar. Bunday holda muomala orqali talabalarning faoliyatini tashkil etish yuzasidan muayyan yo'l-yo'riq beriladi va uni amalga oshirish jarayonida munosabat normalari kiritiladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala talabalarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. U orqali pedagog faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga tuzatishlar kiritadi, ayrim talabalarning, umuman jamoaning kuch-g'ayratini, faoliyat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan keyin boradi. Bu faoliyatga yakun yasash, uni amalga oshirish, unda ayrim talabalarning ishtirok etishi, faoliyat jarayonidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish, qo'shimcha normalarni ishlab chiqish tarzida sodir bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muomalaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalga oshirish, uni pedagogik muomala, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muomalaning yuqori darajasi deb ta'riflash imkonini beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi xuddi shunday darajaga erishmog'i lozim.

O'qituvchining talabalar bilan bo'lgan muomalasining muvaffaqkiyatli bo'lishi, ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odobi)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida talabalarni o'qitish va talabalarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma’lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari etakchi rol o‘ynasa, boshqalari yordamchi rol o‘ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlari etakchi rol o‘ynaydi. Birinchi navbatda perseptiv, ya’ni idrok qilish sohasiga taaluqli bo‘lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog‘i kuzatuvchanlikdir) etakchi rol uynaydi, o‘qituvchiga talabaning psixologiyasini, uning psixik holatini o‘xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman guruh, jamoaning ahvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to‘g‘ri  baho berish imkonini beradi. O‘qituvchi shaxsining o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlari tarkibiy qism sifatida empatiyaga, ya’ni talabalarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti talabalarga bo‘lgan muhabbatdir. Nihoyat, o‘qituvchi shaxsining o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o‘zaro harakatga bo‘lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishda, talabalar bilan muomala qilishga intilishda, talabalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo‘ladi. Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U barcha talabalarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir talabaga ta’sir ko‘rsatish quroliga aylanishida, har bir talabaga faol vaziyatni ta’minlab berishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchida ijtimoiy o‘zaro harakatga bo‘lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozirjavoblik, tanqid ko‘zi bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O‘qituvchining nutqi, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so‘z boyligi va hokazolar ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik qobiliyatiga ega bo‘lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham talabalar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o‘ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo‘lishining shartigina emas, balki ko‘p jihatdan o‘qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. SHu munosabat bilan o‘qituvchining o‘zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko‘zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o‘ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom xaqiqiy narsa ekanligini ko‘rsatmokda. Masalan, shaxs perseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo‘lgan kuzatuvchanlik o‘qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g‘ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O‘qituvchi o‘zining ijtimoiy-psixologik kuzatuvchanligini, ya’ni talabalarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyati bilan birga ularning

paydo bo‘lish sabablarini bilib olish va  bu sabablarning paydo bo‘lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

O‘qituvchining muhim ijtimoiy yo‘l-yuriqlaridan biri dilkashlikdir. An’anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlamadir. Dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarigina bo‘lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan hulq-atvori hamdir, ya’ni ijtimoiy yo‘l-yo‘rig‘idir.

SHaxsning xususiyati bo‘lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta’riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o‘rnatish bilan birga qo‘shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstravert va introversiya tushunchalari bilan bog‘liq ravishda samarali bo‘ladi. Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta’sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki xavotirlikka moyil bo‘ladilar. Albatta, o‘ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo‘lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar o‘rtasidagi oraliqda joylashadilar. Dilkashlik ko‘proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

Talabalar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O‘qituvchida ularning mavjudligi uning pedagogik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Turli yoshdagi talabalarning muomalasiga ta’sir ko‘rsatish sub’ekti bo‘lgan o‘qituvchi tutgan yo‘lning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi guruhlarda o‘qituvchi tashkilotchi bo‘lib maydonga chiqadi. V. Dalning lug‘atiga qaraganda—tuzuvchi, ta’sis etuvchi (tashkil etish, yo‘lga qo‘yish, belgilash, tartibga keltirish, tuzish, hosil qilish, qat’iy asoslash, degan so‘zdan) ma’noni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi talabalar hayotiga ta’sir ko‘rsatishining asosiy mazmuni, uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi talabalar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo‘la oladigan, talabalarning faol ijodkorlik bilan to‘la hayotini tashkil etib, ular orasida o‘zaro hayrixohlik, g‘amxo‘rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro‘-e’tibor qozonadilar. Talabalar katta yoshdagi bunday kishilarni o‘z do‘stlari deb qabul qilishga moyildirlar. Bu - eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga jo‘shqin qulaylik bag‘ishlaydi, uning ko‘pgina tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini samarali hal etishiga yordam beradi.

O‘smirlar o‘qiydigan guruhlarda o‘qituvchining holati rahbar degan so‘z bilan ifodalanishi mumkin. V. Dal bu so‘zni quyidagicha, ya’ni ko‘rsatuvchi, murabbiy,

ish boshi, boshlovchi deb ta’riflaydi. Pedagoglarning o‘smirlarga ta’sir ko‘rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o‘z-o‘zini tashkil qilishning ko‘proq ulushini o‘ziga qamrab oladi, bu esa o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayoni rahbari sifatida talabalarga qo‘yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. O‘smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun mavzu talabiga nisbatan o‘qituvchi va talabaning bir xil yo‘l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo‘lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo‘lishi zarur, yoxud hissiyotlarni engillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo‘lib qoladi.

Katta yoshdagi o‘smirlarga nisbatan o‘qituvchi, homiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu so‘zlar V. Dal lug‘atida «homiylik qiluvchi, g‘amxo‘r, serharakat inson ” sifatida ta’riflanadi.

Talabalar bilan muomala qilish pedagogning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot qilishni doimo o‘rganib borishi kerak. Bu o‘rinda ikki savol tug‘iladi: «nimani o‘rganish kerak?» va «qanday o‘rganish kerak?»

Pedagog jamoa, talabalar guruhi, ayrim talabalar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi lozim. Talabalar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda), muayyan qoidalarni bilish va bu qoidalarni amalga oshirishning muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni ko‘rib chiqamiz:

Talabalar jamoasi bilan muomala ko‘pincha suhbat, ma’ruza, axborot va hokazolar shaklida bo‘ladi. Xo‘sh, bu muomala samarali bo‘lishi uchun nimalar zarur?

Birinchi navbatda suhbatni qaysi so‘zdan boshlash, qanday qilib darhol o‘qituvchining gaplariga talabalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib o‘tamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qo‘yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo‘lajak suhbatning ma’nosi mujassamlashgan bo‘ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko‘rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma’lum qilishdan boshlasa bo‘ladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola yoki sitata keltirish ham muvaffaqiyatli bo‘lib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, darhol talabalarga bo‘lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) bog‘liq ekanligini aytib o‘tsa ham bo‘ladi.

Mana suhbatga talabalarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni tuzishning bunday varianti bo‘lishi mumkin. Dastlab, pedagog talabalar ongi va hissiyotiga

etkazmoqchi bo‘lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So‘ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o‘xshatishlardan foydalanish juda foydali bo‘ladi. SHundan keyin xulosa chiqarish, ya’ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so‘zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta’riflash talabalar muomalasining asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko‘rsatib beradi.

Rollararo (amaliy) muomala tashkiliy faoliyatning har - xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarini uning maqsadiga, bir-biriga munosabati, xarakteriga qarab ular o‘rtasida sheriklik yoki o‘rtoqlik muomalasi vujudga keladi. O‘rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o‘zlari emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o‘zaro yordami, hayrixohligi va manfaatdorligini nazarda tutadi.

SHaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashqari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko‘ngil bog‘lashuviga qarab tanishuv, oshna-og‘aynigarchilik, do‘stlikni farqlash mumkin.

Talabalar muomalasining mazmun tomoni, ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi talabalar uchun muomalaning o‘ziga xos hissiy-ma’naviy g‘oyasiga xosdir. Muomalaning asosiy g‘oyasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki, u har bir yosh bosqichida talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanish xususiyatini belgilab beradigan etakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, talabalar muomalasining mazmuni o‘ziga turmushning buyumlar sohasini, hayotning voqeiy qatlamini, g‘oyaviy-ahloqiy muammolari va hissiy-ahloqiy sohasini qamrab oladi. YOshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o‘zaro nisbati turlichadir. Har bir yosh bosqichidagi muomalaning bosh g‘oyasi talabalar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining, u yoki bu tomoni ustun bo‘lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo‘lishini cheklamay, talabalar uchun ichki sub’ektiv jihatdan ahamiyatli bo‘lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy g‘oyasi va mazmuni bilan bog‘liq ravishda muomala darajalarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir, ular talabalar muomalasi, ob’ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to‘rtta darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin: faktik, axborot, munozaraviy va oshkoraviy.

Muomalaning faktik darajasi — bu suhbatni qo‘llab-quvvatlash uchun nutq ayirboshlashdir, buning natijasida suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish mumkin bo‘ladi. U individ (talaba)ning atrofdagilar bilan munosabatda o‘zini qulay his qilishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lgan muhim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi - talabalar o‘rtasida ham rollararo, ham shaxslararo muomalada ro‘y beradigan g‘oyat turli-tuman xossaga ega bo‘lgan axborot bilan doimo almashinib turishdir. Bunda talabalarning aqliy qiziqishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni talabalar ta’lim-tarbiya jarayonida, o‘qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar.

Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, talabalar bir vaqtning o‘zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o‘ziga xos shaxs bo‘lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoh beruvchilargina emas, balki normalar va qadriyatlarga ham izoh beruvchilar hisoblanadilar. Natijada, talabalarning o‘zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to‘qnash keladi. Bu to‘qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va hokazolarga izoh berish imkoniyati aniqlanadi. Munozaraviy daraja faoliyatning har - xil ko‘rinishlari jarayonida talabalarning muomalasida katta rol o‘ynaydi. CHunki faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch g‘ayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo‘ladi.

## 4-MAVZU: Tarbiya texnologiyalari. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

**REJA:**

1. Tarbiya texnologiyasi asoslari.
2. Tarbiya texnologiyasining mazmun mohiyati.
3. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish.
4. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv. .

**Jamoa haqida tushuncha**. Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. SHaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xoslik kasb etuvchi muhim

belgilarga egadir. quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so‘z yuritamiz. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.SHu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyat kasb etishi uning etakchi belgisi sanaladi. Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo‘ladi. Muayyan jamoaning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a’zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo‘yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay olish jamoa a’zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o‘rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo‘linishga yo‘l qo‘ymaydi.

Har bir jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. SHuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o‘rnata olishdagi usuli, ya’ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg‘urish, mazkur yo‘lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi.

Demak, jamoa o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:




Birgalikdagi faoliyat umumiamiyat ishi uchun ma’suliyat hissini uyg‘ota ... o‘qituvchiik ta’sir ko‘rsatish uchun qo‘l keladi. Jamoa a’zolari o‘rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo‘lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog‘liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a’zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo‘lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim a’zolar o‘rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a’zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o‘rinni egallaydi. O‘quvchining jamoadagi o‘rni uning shaxs sifatida shakllanishi va Yoshlar ittifoqiga erishishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo‘lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko‘zga ko‘ringan o‘rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo‘la oladi. SHuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo‘lgandagina jamoa o‘zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

YAshash joylarida o‘zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo‘lmasin haqiqiy jamoa bo‘la olmaydi. CHinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabalarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o‘qituvchiik rahbarlikning yo‘lga qo‘yilishidir.

SHunday qilib, jamoa bir necha (a’zo) kishidan iborat guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo‘yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a’zolari o‘rtasida qaror topgan o‘zaro birlik, shuningdek, ular o‘rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a’zolarining guruh etakchilariga bo‘ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o‘qituvchiik faoliyatining maqsadi hisoblanidi. Muhim tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan sub’ektlarning alohida namuna ko‘rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a’zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko‘zda tutilgan etakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta’lim hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas’uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. SHuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo‘g‘in – o‘qituvchilar jamoasi hamda o‘quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O‘quv yurtlari jamoasi tarkibida o‘quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O‘quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a’zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o‘zaro birlikka ega o‘quvchilar guruhidir.

O‘quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o‘qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo‘lib, o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda o‘z-o‘zini boshqarish huquqi, shuningdek, o‘ziga xos psixologik muhit va an’analariga ega bo‘ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

**Bolalar jamoasining shakllanish bosqichlari**. Jamoaning vujudga kelish uchun to‘rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi.

Jamoaga qo‘yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko‘rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a’zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy Yoshlar ittifoqi darajalarini ko‘rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. SHunga qaramay o‘qituvchiik nuqtai nazardan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini ma’lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi jamoa

a’zolariga nisbatan samarali o‘qituvchiik ta’sir ko‘rsatishning maqbul shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jammoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O‘quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo‘lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasdagi tajribaga ega emasliklari bois so‘z yuritilayotgan bosqichda o‘qituvchining asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu bosqichda o‘qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a’zolariga birday talabni qo‘ya olishi, u tomonidan qo‘yilayotgan talabning qat’iyligi, izchilligi hamda murosasizligi muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligi, bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma’lum bo‘lsada, ayni vaqtda guruh a’zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun zarur bo‘luvchi sharoitning hali mavjud bo‘la olmaganligini hisobga olish zarur.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faolining paydo bo‘lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a’zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o‘qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Faollar o‘qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o‘qituvchi talabini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o‘qituvchi jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni, jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tadi.

O‘quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o‘tkazishga tiyyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a’zolarida motiv (rag‘bat)larning paydo bo‘lishi, ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelshida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo‘lishi, o‘z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqelaridan noo‘rin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu o‘rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «jamoa vijdoni» deya bergan ta’rifini eslab o‘tish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo‘lsada, ayni paytda uning o‘ziga ham oshirilgan talablarning qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a’zolari bilan qarama-qarshi qo‘yish xavfli tug‘ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a’zolarining alohida faollik ko‘rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashiga ko‘ra, bu davrda butun jamoa «ayrim o‘zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo‘ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O‘qituvchi mazkur yo‘nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. SHu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a’zolari xatti-harakati jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ‘iboti tashkil etiladi. O‘qituvchi jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a’zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo‘shish imkonini beradigan o‘zaro munosabatlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoaning har bir a’zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko‘nikmasini hosil qila olishi jamoa a’zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi - uning a’zolarini ijobiy, madaniy-ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichda ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. SHuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni qo'yidagi uch bosqichga bo'ladilar:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

v) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa hayotida muhim o'rin tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning etakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

A.S.Makarenko jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1) major - doimiy tetiklik, o'quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari;

2) o'z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;

3) jamoa a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

4) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik;

5) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;

6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko'nikmasi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

YAgona talab o‘quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o‘rnatilishini ta’minlaydi.

O‘qituvchilar tomonidan qo‘yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. qo‘yilayotgan talablar o‘quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo‘yilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi lozim.

4. O‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar, ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O‘quvchi qo‘yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo‘yish metodikasini ham o‘zlashtira olgan bo‘lishi kerak.

O‘quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo‘yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o‘quvchilar faoliyat, shuningdek, qo‘yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat.

O‘quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko‘pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasasining direktori yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktr o‘rinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko‘rsatish, keyinroq sinflar bo‘yicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo‘shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O‘quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. SHu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

## 5-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH.

**Reja:**

1. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2. Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi.
3. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari.
4. Tarbiyada rag’batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o’rni.

O’quv yurtining oila va keng jamoatchilik bilan alokasi guruh rahbari orkali amalga oshiriladi. Guruh rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quydagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan ya’indan alo’a o’rnatadi va aloqani doimo muca’kamlab boradi;

2. Talabaga nisbatan o’quv yurtining va oilaning yagona talablar kuyishga erishadi;

3. Guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning guruhdagi Tarbiyaviy ishlariga faol ‘atnashishlarini ta’minlaydi;

4. Ota-onalar o’rtasida pedagogik bilimlarni tarkatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko’taradi;

5. Guruhga otali’ qilayotgan tashkilotlar, oila va o’quv yurtiga yordam berubchi tashkilotlar bilan alo’a o’rnatadi va ularni guruhdagi Tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Guruh rahbarining talabani yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari xakida bir-birlarigaqanchalik ko’p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga boglik. Ana shu maqsadda guruh rahbari oilaga bir ‘ator tizimli axbarotlar berib turishi kerak:

Talabaning o’quv mehnatiga tavsifnoma, o’’ishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- Talabannig ijtimoiy faolligi xakida axbarotlar, talabaning jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiri’lari va vazifalarning bor-yo’’ligi, sababi, ularga o’zining munosabati.

- Talabaning o’z o’rto’lari, O’qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning harakteri, o’quv yurtidagi munosabatlarnnig doirasi.

- Talabaning ayrim xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga talaba Tarbiyachi xakida maslahat va tavsiyalar. Oila ham o’z navbatiida farzandi xakida o’z mulohazalari, ko’zatishlari yo’zasidan guruh rahbariga quydagi mazmunda ma’lum axbarotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

- Talabaning o’quv yurti xakidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, guruh hayotidagi turli bo’ealarga baholari.

- Ota-onaning ayrim O’qituvchilardan, guruh rahbaridan, o’quv yurti rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Guruh rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashublar talabani to'la o'rganishga, ta'lim va Tarbiyada shu talaba uchun eng ma'bul Tarbiya va ta'sir bositasini topishga yordam beradi. Guruh rahbari o'z ko'zatishlari, oiladan olgan axbarotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xul'ini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyiningi REJAlarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, Tarbiya albatta samarali natija beradi.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, guruh-guruhli va ommaviy kabi shakllar keng tar'algan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo'nalishdir. CHunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni o'quv yurti talablari bilan tanishtirish, jamiyatning Tarbiyadan ko'zatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, Tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari xakida bilim berish, guruh hayotidagi o'zgarishlar, REJAlar xakida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ro'zalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, sabol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Guruh rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tar'algan va qarortopgan ish shaklidir. Bu majlislar guruh ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z 'arorlari bilan guruhdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan Tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishni belgilab beradi.

**Guruh ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud:** guruhdagi tashkiliy ishlar bilan boglik majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bagishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga ba?ishlangan majlislar. Bu majlislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan boglik guruh ota-onalari majlisida odatda ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejalari tasdi'lanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar ta'simlanadi.

Ko'pgina o'quv yurtidagi guruh rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida sabol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'pro' shaxsiy ish shakli bo'lib, unga guruh rahbari ota yoki onaga farzandini Tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yo'zasidan aniq maslahatlar beradi. Guruh rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rganish va ko'zatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi goyatda muhim. Agar bu xil jurnalni guruh rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u Tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim bositasiga aylanadi.

4.3. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari.

Guruh rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. Talabalarining uylariga borish – bu oila bilan alo'a qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda guruh rahbari talabaning ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topada.

2. Ota-onalarni o'quv yurtiga cha'irish. Bundan maqsad, faqatgina talabalarining xul'i, sabodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga talabani oilada Tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa talabaga cha'iri'lar yoki maxsus da'vatnomalar orkali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar guruh majlisini o'tkazish. Bu shakldagi alo'a maxsus ish rejasi orkali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psxologik bilimlar bilan 'urollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ro'zalar o'tkaziladi.

6. Sabol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli guruh talabalarining xususiyati, harakterini yaxshiro' o'zlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning Tarbiya borasidagi ilg'or tajrivalar bilan fikr almashish, o'rto'lashish. Bu narsa quydagi Mabzuda bo'lishi mumkin:

a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?

b) talabaning kundalik rejimi xakida.

b) "Ota-onalarning obro'si" xakida, "Oilada yoshlarga axlokiy Tarbiya berish" va xokazolar to'g'risidagi anjumanlar o'tkazish.

8. O'quv yurti qoshida ota-onalar unibersitetlarini tashkil etish va bu unibersitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni Tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

v) "Ota-onalar, sizlar uchun" degan Mabzuda og'zaki jurnal.

b) faol ota-onalarning Tarbiyaviy ish tajrivalari bilan boshqa guruh rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari goyat keng, ko'p 'irrali bo'lib, bu ishlar faqat guruh va o'quv yurti mi'yosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va talabaning ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham ya'in alokada bo'lishni taqozo etadi.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni ‘amrab olishi hamda ularning kizi’ish va intilishlariga mos bo’lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining Mavzulari "Soglom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobininga balli", "Sogtanda soglom a’l", "Mehr chashmasi", "kizlar ibosi", "Bir yigitga ‘ir’, hunar oz", O’glim posbonim", «Hayot—ucoz, hal’—muallim", "O’zbekiton Vatanim manim!", "Milliy burch va ma’suliyat", "Oila sabo’lari", "Oila etikasi", "Oila tinch — mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo’sa?asida", "Askarlik — yigitlik o’quv muassasii", "Oila bahti — Vatan bahti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan oconadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo’lishi mumkin».

Bahslar, bellashublar, uchrashuvlar va turli sanalarga bagishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo’lishi mumkin.

**8-mashg‘ulot: Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va o’quv faoliyati samaradorligini oshirishda guruh rahbarining o‘rni. Reja:**

1. Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni.
2. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.
3. Guruh rahbarining talabalar va ota – onalar bilan olib boradigan ishlar mazmuni.
4. Guruh rahbarini tarbiyaviy ishlarini yo‘lga qo‘yish metodikasi.

Talablarning qo‘yilishi jarayonida ularga o‘quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o‘rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. qo‘yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo‘lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o‘quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o‘zlari, albatta, o‘qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

SHu bois o‘qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi bu o‘qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishidir. O‘z-o‘zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan, o‘quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim o‘rin tutadi. Jamoa an’analari jamoa a’zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo‘lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an’analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi:

a) kundalik faoliyat an’analari;

b) bayram an’analari.

Kundalik faoliyat an’analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Bayram an’analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog‘liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro‘z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

An’anaviy bayramlar o‘quv muassasalarida turlicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar an’analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo‘lsalargina uning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

An’analarning yuzaga kelishida o‘quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag‘ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo‘ymasligi zarur.

Tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda o‘qituvchilar jamoasi yoki o‘qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o‘quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an’analarni davom ettirishga o‘rgatish masalasiga alohida e’tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi.

O‘quvchilar jamoasi ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o‘quvchilar birlashmasi,

guruhidir. O‘quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o‘quvchi hamda o‘qituvchilar yo‘lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh etakchisi (starosta), «Yoshlar ittifoqi» tashkilotining guruh bo‘limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar).

Bolalar jamoalarida rasmiy etakchilar bilan birga norasmiy yo‘lboshchilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o‘quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat’iyatliligi, hech narsadan cho‘chimasligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. SHu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. SHu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to‘laqonli ma’lumotlarga ega bo‘lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

YUqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a’zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlariga ko‘ra to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi.

4. Jamoani shakllantirish o‘ziga xos metodika asosida amalga oshriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo‘yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo‘lishi, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an’analari muhim ahamiyat kasb etadi.

O’qituvchi uyga berilgan ikki topshiriq haqida gaplashib bo’lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki topshiriq haqida gaplashib bo’lgach, uchinchi savolga javob berishni bo’lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki o’quvchidan so’raydi. O’quvchilar avvalo ota-onalaridan yoki opa-akasidan, keyin

esa tarbiyachilari, o'qituvchilari, mahalla-kuydan minnatdor ekanligini aytadilar, o'qituvchi xulosa qiladi:

– Javobingizdan ma'lum bo'ldiki, shaxsning kamol topishi avvalo oila muhitiga bog'liqdir. O'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning quyidagi she'riy parchasiga e'tibor bering.

*Ulcha erur tiflga shoyista ish,*
*Bilki kichiklikda erur parvarish.*
*Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,*
*El boshiga chiqqunga topdi sharaf.*

Tifl, ya'ni bolani kichikligida parvarishlash, ya'ni tarbiyalash kerak, sadaf qatoriga kirgan qatra, ya'ni dur odamlarning boshida turish sharafiga muyassar bo'ldi. Huddi shuningdek, ota-ona go'yo sadaf, bolalar esa ularning bag'ridagi katralar – durlardir.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta'minoti, o'zaro munosabatlar: er-xotin, bobo-buvi qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog'a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a'zolarining birgalikda ishlash, dam olishi, adabiyot, san'at, ilm-fan va sport bilan shug'ullanish, daromad, ruhiy-ma'naviy holatlar, qo'ni-qo'shnichilik aloqalari, mahalladagi to'y-ma'rakalarga qatnashish va hakozolar oila muhitini tashkil etadi.

Oila muhiti ahloq-odob, madaniyat qoidalariga asosida tashkil topsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi bolalar to'g'ri kamol topadi.

Hamqishloqlar bir oiladek yashab, bir-biridan xabardor, bir-birlariga mehribon bo'ladilar, qishloqning, kollektivning ishi haqida hisob berib turadilar, bir-birlarini va shu asnoda bolalarini ham kollektiv ruhida tarbiyalaydilar.

Ibn Sino kollektivdan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan bolaning bahtsiz bo'lib qolishni ta'kidlaydi.

Inson oilada dunyoga kelgan bilan jamiyatga aloqadordir. Farobiyning fikriga «insonning va jamiyatni qo'lga kiritishi, ahloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o'z qo'lidadir».

Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko'rish mumkin. Yoki shaxsning barkamolligi, oilaning to'la-to'kisligiga qarab, jamiyatnig iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ahloqiy ahvolini bilish mumkin. Chunki, shaxs-oila jamiyat munosabatlari o'zaro mustahkam bog'langan. Shuning uchun shaxs oila-jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi.

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari

quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

## 9-mavzu: Ta'lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlat.

**Reja:**

1. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.
2. Ta'lim muassasalarida to'garak ishlarini tashkil etish.
3. Ta'lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.
4. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirish usullari.
5. Sinf rahbarining tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatining muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O'qituvchining esa yangi sinf bilan ko'p marta ish boshlashiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan sinf rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi.

Boshlang'ich daraja pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o'quvchilarning unga katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir. Umuman maktab o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishining hyotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash

sinf rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta’rifini aniq jamoa ta’rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan maqsadning, pedagoglar bilan o’quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o’zaro ma’suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o’z-o’zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

Bolalarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoasining tashkiliy tuzilishi ta’sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Jamoa rivojlanishining dastlabki boskichida bolalar tarqoq bo’lib, ularda yakdil va sinf rahbari tayanishi mumkin bo’lgan ta’sirchan faollar bo’lmaydi. Shuning uchun bunday jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hakozo.

Agar jamoa rivojlanishining  ikkinchi bosqichida bo’lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarini qo’llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo’lsa, uning ayrim o’quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo’yishni kuzatish mumkin.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o’quvchilarning birgalidagi faoliyatiga ishtiyoqi chiqindi qog’oz yoki metallom to’plash, kechaga  tayyorgarlik ko’rish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko’zga tashlanadi. Sinf rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo’lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya’ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki yarim o’quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo’lajak shanbalik yoki bayram kechasi bolalar uchun faoliyatga undovchi bo’lsa va bo’ya kun istiqbol faqat ayrim o’quvchilar uchun ahamiyatli bo’lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o’quvchilarning faqat sinfdan tashqari  faoliyatida namoyon bo’ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo’lmaydi. Sinf rahbari ishining o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o’quvchilar jamoasini shakllantiradi. O’quvchilarning asosiy vazifasi o’qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o’qishga qanday munosabatda ekanlilarini o’zlarini  darsda qanday tutishlarini, uy vazfalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o’qishdagi mo’ljallari nimalardan iborat, bu mo’ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki emasligi hisoblanadi.

Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Sinfda haqiqiy jamoa munosabatlari bo’lmasligi mumkin, bunda o’qituvchi ishni boshidan boshlashga to’g’ri keladi. Ko’pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig’ma» sinflarda, yangi qurilgan maktablarda bo’lishi mumkin. To’g’ri boshqa hollarda ham shunday bo’lishi, avvalgi sinf rahbarining kuch-g’ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo’lishi, tarkibi o’zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan sinf rahbari sinf bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang’ich davri bilan ish ko’radi, deb mo’ljallab bo’lmaydi. Boshlang’ich maktabdayok (I-IV sinflarda) ko’pincha yaxshi sinf jamoalari shakllanadi. O’qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo’llaydi.

Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati.

Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga ma’lumki, hyoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o’zgarib boradi, lekin bolalik va o’smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo’ladi. Bola manba shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o’sishi o’zgarishi shaxs sifatida kamolga etadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta’sir etishi natijasida bola jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o’ziga munosib o’rin egallaydi. Shaxsning fazilatlarini to’g’ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga, turli munosabatlar doirasiga, turli vaziyatlarda kuzatib ko’rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro’yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to’g’ri hal qilish uchun uning xulqiga, ta’sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe’l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta’sir etadi.

O’rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta’sir etadigan omillar ahamiyatiga e’tibor berib kelganlar Farobiy inson kamolotida ta’lim tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: «munosib inson» bo’lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta’lim va tarbiya olim imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda ahloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo’ldir deydi. Abu Ali Ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o’rniga alohida to’xtalib: Bola tug’ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo’yishi, so’ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo’ladi degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining rivojlanishga, kamol topishga irsiyat, muhit va tarbiya kabi (ta'sirlar) omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishga naslning ta'siri rivojlanishga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak, har bir bolaga ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, buy-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhimdir.

Muhit deganda kishiga stixli ta'sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. Shular bilan birga muhit-oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh urug'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. Chunki bu erda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hyotga va tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki komil inson shaxsni tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. Chunki jamoa har qanday bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga soladi. Masalan, sinf jamoasini oladigan bo'lsak, agar shu sinfda bir yomon ya'ni xulqi, tarbiyasi jihatdan yomon bulsa, shu sinf jamoasi uni asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. Ya'ni qanday yo'llar bilan degan savol tug'ilish mumkin.

Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tmoqchiman; “Aqlni beaqldan o'rgan”, ushbu maqol zamirida bir qancha ma'nolar bor. Ya'ni jamoada har xil bolalar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

**O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:**

**1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish.**

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni engishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O’quv mehnatiga ongli munosabatda bo’lish va unga mas’uliyat bilan yondashish.

O’quv mehnatiga ongli munosabatda bo’lishlik ta’limning ijtimoiy, o’qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o’quvchilarga ularning bosh vazifasi – o’qish ekanligini tushuntirishi kerak. O’qishga mas’uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o’qituvchilar, ota-onalar va o’z oldidagi mas’uliyat, ularning fikrlari, ma’qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o’quv jamoasida munosib o’rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O’quv madaniyatini oshirish.

O’zlashtirishning past bo’lishi aksariyat hollarda, o’quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko’nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o’qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o’quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog’liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo’l qo’ymaslik, saranjomlikka o’rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni engish.
6. O’quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.

Bu degani o’quv mehnatini o’quvchining dam olishi bilan to’g’ri almashtirib borilishidir.

7. O’qishda o’rtoqlarcha o’zaro yordam uyushtirish.

O’rtoqlarcha o’zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Sinf o’qituvchilari bilan hamkorlik.

Sinf rahbari ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o’zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o’qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanyshib chiqamiz.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o’qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan ish ekanligini o’quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning etishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o’quvchi bilan alohida yoki bir guruh o’quvchilar bilan o’tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O’qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas’uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

«Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko’p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o’qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o’qishga mas’uliyat bilan qarash ruhida, ko’chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Sinf majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi» degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'g'risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi etarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi.

Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar etishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo'g'rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib etishish mumkinmi? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas o'yg'otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo'yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo'g'rofiya», «O'simliklar hayoti», «Bizni o'rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o'quvchilar qo'liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do'st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o'zi?

O’quv jarayonida fanlar bo’yicha o’zaro bog’lanishga katta e’tibor berish kerak. Bundan o’qituvchiyu o’quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar echish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o’lchov birliklari qo’llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o’rganadigan mavzular bo’ladiki, ularda ikkala fan o’qituvchisi ham bir darsda o’z sohalari bo’yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo’ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo’g’rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o’rganishga havas uyg’otish mumkin bo’ladi.

O’quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to’garak, fakultativ mashg’ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Sinf rahbari o’z o’quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma’lumotlar bilan fan o’qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo’lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo’ladiki, biror fandan o’zlashtirmayotgan o’quvchi bilan sinf rahbarining o’zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo’ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo’lganda, a’lochi o’quvchilarni yoki ushbu fan o’qituvchisini ham ko’makka chaqiradi. Bundan o’quvchini ko’ngli tog’dek ko’tariladi, yolg’iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o’zlashtirishga harakat, havas uyg’onadi.

Bolalarda o’quv mehnatiga javobgarlik va mas’ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas’ullikni sezmagan o’quvchi pala-partish o’qiydi. Mas’ullik kishini sergak torttiradi, o’quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma’lumki, ongli intizom va mas’uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo’lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o’rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni sinf rahbari bir o’zi emas, balki o’qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto’g’ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas’uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko’p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o’zidayoq yo’qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o’qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o’tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o’quv yumushlari bilan band bo’lishadi; ba’zi o’qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog’oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o’qituvchi tajanglashadi, o’quvchilar

bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchisining o'zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg'ulotlaridayoq o'z «siri»ni bolalarga oldirib qo'ygan. Uta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, bolalarni o'ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bundan ham yomoni o'quvchilar intizomini buzadi, sinfda tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziyoni.

O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – maktabning' asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishyaari lozim. Butun sinf o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, sinfda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa'diy:

*Agarda muallim bo'lsa beozor,*
*Bolalar sinfni qilishar bozor,*

deb bejiz aytmagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Sinfga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aqk qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

Barkamol avlod tarbiyasi — sinf rahbaridan yuksak iqtidor, mas'uliyatni talab qiladigan faoliyatdir. O'quvchilarning yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrli bo'lishi ular uchun mo'ljallangan har bir tadbir o'quvchi ongiga, odobidagi xatti-harakatlarida iz qoldirmog'i lozim.

Har bir tarbiyaviy tadbir xalqimizning o'tmish avlodlari qol-dirgan boy merosi, hikmatlari bilan uyg'un bo'lsa, ota-bobo va mutafakkir, ma'rifatparvar olim-u ulamolarning ruhi shod bo'ladi.

Tarbiyaviy tadbirlarning usullari:

• so'z orqali ifodalash (suhbat, maslahat, hikoya, ifodali o'qish);

• namoyish qilish — axborotlashtirish (videolavhalar, multik tasmalar, kinofilmlar);

• shaxsiy namuna bilan o'rnak ko'rsatish, o'zining ijobiy hara-katlari orqali ta'sir ko'rsatish;

• rag'batlantirish — o'quvchi mehnatini to'g'ri baholash. Tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan vositalar. Mavjud manbalar bilan tanishish hamda ta'lim-tarbiya amaliyotini o'rganish asosida «vosita» tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin, degan xulosaga kelindi: vosita — bu aniq belgilangan o'quv yoki tarbiya maqsadiga erishish, kutilgan natijani qo'lga kiritishda ishtirokchilar (o'qituvchi — o'quvchi, tarbiyachi — tarbiyala-nuvchi, ota-onalar — farzandlar) o'rtasidagi o'zaro munosabatda bog'lovchi vazifasini o'taydigan qurol. Yuqorida aytib o'tilgani-dek, pedagogik jarayonda qo'llaniladigan vositalar ikki turga bo'linadi:

1. Ta'limiy (didaktik) vositalar.
2. Tarbiyaviy vositalar.

Tarbiyaviy vositalarning turi, garchi, yuzga yaqin bo'lsa-da, biroq ularni mohiyati, qo'llanilish o'rni, mavjudlik shakli va xu-susiyatlariga ko'ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Subyektlar namunasini ifodalovchi vositalar (xalq qahra-monlari, buyuk mutafakkirlar, zamondosh qahramonlar, urush va mehnat faxriylari, ota-onalar, keksa avlod vakillari, vasiylar, o'qituvchilar, jamoatchilik a'zolari hamda tengdoshlarining shax-siy namunalari, milliy qahramonlar jasorati va boshqalar).
2. Tarbiyalanuvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiluvchi vositalar (turli mavzulardagi ko'rgazmalar, tanlovlar, ko'riklar, sport musobaqalari).
3. Texnik vositalar (magnitofon, video va audio tasmalar).
4. Axborot vositalari (televideniye, radio, kompyuter, Internet tarmog'i).
5. Muayyan g'oyalarni ifodalovchi vositalar (hadislar, ta'li-motlar, nazariyalar, shiorlar).
6. Ijodiy faoliyat mahsuli (milliy urf-odat, marosim, an'analar, oila, ta'lim muassasalari yoki bolalar jamoalarining an'analari, badiiy ijod namunalari, oilaviy an'analar, harbiy, sport va mehnat qo'shiqlari, allomalar, buyuk sarkardalar, ilm-fan,

san’at, ada-biyot namoyandalarining hayotidan ibratli hikoyalar, qo‘shiqlar, teatr tomoshalari, sahna ko‘rinishlari, nutq).

7. Tasviriy-g‘oyaviy vositalar (davlat ramzlari, devoriy gazetalar, san’at asarlari, fotomontajlar, videosujetlar, plakatlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, badiiy asarlar, ish qurollari, tabiat manzaralari).

8. Ijtimoiy-huquqiy me’yorlar va ular mazmunini ifodalovchi hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlik hamda idora-larning ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalar, ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, «Talabalar turar joyi»ning Nizomi, «O‘quvchi (talaba)lar qoidasi», ma’naviy-ma’rifiy ishlarning kalendar ish rejasi, ijtimoiy munosabatlar).

9. Harakatli vositalar (o‘yinlar, didaktik, intellektual, ishbi-larmonlik, rolli o‘yinlar, sport va xalq o‘yinlari).

10. Madaniy-ma’rifiy muassasalar (axborot-resurs markaz-lari, ta’lim muassasalari, xalq ijodiyoti markazlari, muzeylar, me’moriy obidalar, madaniyat saroyi yoki klublari va boshqalar).

11. Ijtimoiy institut va birlashmalar faoliyati

Pedagogik faoliyat jarayonida ushbu vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish imkonini berish bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning qiziqarli bo‘-lishini ta’minlaydi, ta’sirchanligini oshiradi. Ta’lim muassasa-larida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishda tar-biyaviy vositalarning mavjudligi hamda ulardan qanday hollarda foydalanish usullarini belgilab olish pedagogik faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilishiga yordam beradi.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishda tashki-liy shakl va metodlar bilan birga, tarbiyaviy vositalarning ham o‘rni beqiyos. Aniq belgilangan o‘quv yoki tarbiya maqsadiga erishish, kutilgan natijani qo‘lga kiritishda ishtirokchilar (o‘qi-tuvchi — o‘quvchi, tarbiyachi — tarbiyalanuvchi, ota-ona —far-zandlar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda bog‘lovchi vazifani o‘taydigan qurollarning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘luvch tarbiyaviy vositalar pedagogik faoliyat jarayonining samarali, tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlash bilan birga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Bu o‘rinda eng muhim shart tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilayotgan shaxs (o‘qituvchi, tarbiyachi, ota-ona, vasiy) tomonidan vositalarni oqilona tanlay bilishdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tamoyilining shakl va metodikasi

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning o‘ziga xos umumiy pe-dagogik tamoyillaridan farqli o‘laroq quyidagilarni nazarda tutish muhim:

1. Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan tamoyili. Tar-biya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli, har bir tarbiyaviy tadbirni davlatimiz siyosati, qonun, qarorlari, me’yoriy hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish. Ayniqsa, ijtimoiy turmush tar-zida mazmunli, ijtimoiy mehnatga munosabatlarni to‘la aks et-tirish lozim.

2. Tarbiya jarayonini mustaqil O‘zbekistondagi bunyodkorlik bilan uyg‘unlashtirish tamoyili. Tarbiyaviy tadbirlar mazmunini kundalik axborotlar, video tasmalari, obidalar, qurilishlar, bozor munosabatlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘lash.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil etish va o‘quvchilardagi ijobiy sifatlarni rivojlantirish tamoyili.

4. Pedagoglikning parallel ta’sir etish tamoyili. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish. Bolaning oila, ota-ona, o‘rtoqlari va jamoatning ta’siridagi holati, xarakter xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyaviy ishlar tamoyillari-dan ko‘p jihatdan tarbiyaviy ishlar shakl va metodlariga bog‘liq. Bog‘chada tarbiyaviy ishlar ko‘proq mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’limning katta guruhida mashg‘ulotlar o‘tka-zish jarayonida va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ta’lim berish bilan bir qatorda, ularning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish, barkamol insonni tarbiyalashdagi ma-daniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshiradi.

## 10-mavzu. Oila, mahalla va ta’lim muassasasining bola tarbiyasidagi o‘rni.

**Reja:**

1. Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta’lim muassasalarning o‘zaro bog‘liqligi va uni yo‘lga qo‘yish shakl, metodlari.
2. Ota-onalar majlislarini tashkil etish. Oila tarbiyasining mohiyati.

Bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida qo‘l-laniladigan metodlar: tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo‘lish: tarbiyaviy ishlarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo‘nalishini yaxlit amalga oshirish-dan iborat.

Bolalarda materiallarning rang-barangligi, qiziqarli, hayotiy bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usul-larining birligini ta’minlash, uning natijasini hisobga olish uslu-biyati — ta’lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirishga bog‘liq.

Maktab yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda, metod tanlashda quyidagi tamoyillarga e’tibor berish lozim:

1. Bolada shakllanishi lozim bo‘lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga;
2. Yoshi, ruhiyatiga, aql-zakovatiga, ma’naviy dunyosi va faoliyatiga ta’sir etishga ko‘maklashuvchi bo‘lishga;
3. Yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashtirishga;

4. Tarbiyaviy ta’sir etuvchi usul, metodlar kishilik jamiyati-ning tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi hisoblangan — xalq og‘-zaki ijodi namunalari, maqol, naql, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an’ana, teatr, amaliy san’atdan foydalanishga.

Ajdodlarimiz madaniy merosimiz — pandnomalar, bitiklar, yozma yodgorliklar, xalq kitoblari, urf-odat, bayramlar orqali o‘z metodlarini amalga oshirishda foydalanishgan. Bu metodlar quyidagilar:

-  har bir ishda kattalarning shaxsiy namunasi;
-  pand-nasihat qilish, suhbat o‘tkazish;
-  o‘yin va mashq;
-  rag‘batlantirish, tabassum, iljayish, barakallo, yaxshi va boshqalar;
-  o‘rgatish va tushuntirish;
-  jazolash.

Yuqoridagi tarbiya metodlari xalq orasida kundalik hayotda qo‘llanilib, u yo ijobiy, yo salbiy ta’sirga egadir. Bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda yuqoridagi metodlardan kompleks shaklda foydalanish hayot taqozosidir.

Tarbiya metodlaridan bog‘cha va maktabda o‘tkaziladigan turli ish shakllarida foydalaniladi: axloqiy mavzudagi suhbatlar, o‘yin, ertalik bayramlari, munozara, o‘tkir zehnlilar mushoirasi, bayram, marosimlar.

Mavsumiy ertaliklarni tashkil etishda tarbiyachi mahorati

Ertaliklar maxsus maqsadga qaratilgan tadbir bo‘lib, o‘qi-tuvchining tarbiyaviy rejasi asosida tashkil etiladi. Ertalikning tuzilishidagi asosiy bosqichlar:

Mavzu: mavzudan ko‘zlangan maqsad — tarbiyaviy, rivojlan-tiruvchi ertalikni olib borishda tanlangan kompleks metodlar: tushuntirish, o‘yin, mashq.

Ertalikning jihozi: ko‘rgazma, rasm.

Ertalikning borishi: uch qismdan iborat:

1. Kirish.
2. O‘quvchilarning bilim saviyasi va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatish.
3. Ertalik yakuni: ertalik natijasini aniqlovchi ish faoliyati (savol-javob, o‘quvchining mavzu mazmunidagi munosabati, sinf hayotidagi ruhiy o‘zgarishlar).

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘tkaziladigan suhbatlar mazmuniga ko‘ra, 10—15, 20—25 daqiqani qamrab olishi lozim.

Ertaliklarni yuqori saviyada tashkil qilishda o‘qituvchi quyi-dagi madaniyat qirralariga ega bo‘lishi kerak:

1. Ruhiyat madaniyati — bolalarning ma’naviy ehtiyojlariga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish.

2. Siyosiy madaniyat — davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo‘lish.

3. Ma’naviy madaniyat — yaxshi o‘quvchilarning ijodiy, ma’na-viy, badiiy faoliyatini tashkil qilish.

4. Mahorat madaniyati — har bir tadbirni zo‘r quvonch va qalbdan tashkil qilishdan iborat.

Ertaliklarni sinfda, bog‘chada, mahallalarda o‘quvchi va ota-onalar bilan hamkorlikda o‘tkazish mumkin.

Axloqiy mavzudagi ertaliklardan namunalar keltiramiz.

Mashg‘ulot mavzusi: «Mustaqillik va ezgulik monumenti» surati ustida suhbat

Maqsad: Bolalarda ona-yurtga muhabbat, vatanparvarlik tuy-g‘usini shakllantirish. Bolalarga Toshkent — mamlakatimizning poytaxti ekanligi, Toshkent shahriga barchaning mehr-muhab-batini uyg‘otish. Istiqlol yillarida Mustaqillik maydonidagi o‘zga-rishlar haqida so‘zlash. «Baxtiyor ona» haykali haqida so‘zlab be-rish bilan, uning o‘ziga xos ma’nosini bolalarga tushuntira olish.

Mashg‘ulotga kerakli jihozlar: surat, videolavha.

Suhbatning borishi:

O‘qituvchi: Bolajonlar, hozir o‘lkamizda qanday fasl?

O‘quvchi: Bahor fasli.

O‘qituvchi: Biz qayerda yashaymiz?

O‘quvchi: Mustaqil O‘zbekistonda.

O‘qituvchi: O‘zbekistonni kim boshqaradi?

O‘quvchi: Islom Abdug‘aniyevich Karimov.

O‘qituvchi: Bolajonlar, madhiyani kim yozgan?

O‘quvchi: A. Oripov she’ri, M. Burhonov musiqasi. (Bolalar madhiyani ijro etadilar.)

O‘qituvchi: Yaxshi, bolalar, madhiyamizni ijro etayotganingizda sizlarning ko‘nglingizdan nimalar kechadi?

Madhiyamizni ijro etgan bolalar ichki kechinmalarini so‘zlab beradilar.

O‘qituvchi: O‘zbekiston nurli bo‘ston,
Noming seni tilda doston,
Jahon ichra yagonasan
Xalqing ulug‘, mardonasan.

O‘qituvchi: Vatan degani nima o‘zi?

1-bola: Vatan — bu mening onam.

2-bola: Vatan — bu mening uyim.

3-bola: Vatan — bu mening mahallam.
4-bola: Vatan — bu mening bog‘cham.
5-bola: Vatan — bu mening shahrim.
O‘qituvchi suhbatni davom ettiradi:

Bolalar, istiqlol yillarida poytaxtimizdagi Mustaqillik maydoni betakror qiyofa kasb etdi.Davlatimiz rahbari Musta-qillik maydoni — aziz mamlakatimizning muqaddas timsoli ekanligini ko‘p bor ta’kidlaganlar. Toshkent shahridagi Musta-qillik maydoni — iftixor maydoni. O‘zbek xalqining mushtarak orzu-umidlari, ezgu istaklari va milliy bunyodkorlik amallarining ramziy timsollarini namoyon etgan maskan bu. Undagi har bir me’moriy namunalar o‘ziga xos ma’noni bildiradi.

Bugun biz siz bilan mustaqillik maydonidagi «Mustaqillik va ezgulik monumenti» surati ustida suhbatlashamiz. Monument-dagi «Baxtiyor ona» haykaliga diqqat bilan qarang. Bu aziz go‘shadagi baxtiyor ona siymosi ham xalqimizning onalarimizga bo‘lgan mehr-u muhabbat, bolajon xalq ekanligimizning ramziy ifodasidir. Onaning munis chehrasi, o‘zbekona libosi, ma’noli nigohi. Suratga diqqat bilan qarang. Bolasini sevinch nigohi bilan quchib turgan ona, unga dunyodagi yaxshi niyatlarni tilaydi. Yurtga, Yurtboshimizga sodiq, ota-onaga mehribon va do‘stga qadrdon bo‘lib ulg‘ayishini tilayotganini kuzatamiz. Bolalar, ona haykaliga qarab onangizni esladingizmi?

Onalarimiz bizga mehribon, onalar mehrini hech qanday dori-darmon bosa olmaydi. Ona uchun farzand aziz, farzanddan shirini yo‘q.

Onalarni qanchalik ulug‘lasak, biz oilamizni, Vatanimizni e’zozlagan bo‘lamiz. Vatanni onaga qiyoslab ona-Vatan deymiz. Dunyoda onadek buyuk zot bormikan?

Aqlli, dono farzand bo‘laman degan bola ota-onasini hurmat qilishi kerak. Chunki farzand ota-onalar orzusi, quvonchi, baxti. Har bir ota-ona o‘z farzandiga sog‘liq tilaydi, uning baxtli bo‘li-shini orzu qiladi. Xo‘sh, biz onalarimizni qanday qadrlaymiz? (Onalarimizga salom berishni kanda qilmaslik, barcha so‘zlarini qunt bilan tinglash. Ularni hurmat bilan o‘rnidan turib qarshi olish, kuzatish, qilayotgan ishlariga ko‘maklashish, ularni mut-laqo ranjitmaslik, ularga doimo rahmat keltirish.) Suratga diqqat bilan qarang, sizningcha, ona o‘z bolasiga qanday tilaklarni ayt-yapti? (O‘qituvchi bolalar bilan surat asosida suhbatlashib, ular-ning fikrini umumlashtiradi.)

O‘qituvchi:

Maydon maftun etdi ko‘plarni g‘oyat,
Bu joyda aytildi qancha rivoyat.
Bir kun ona-bola kirib keldi-yu,
Maydon egasini topdi nihoyat.

A. Oripov

O‘qituvchi: Kelinglar, endi qolganini sayrda davom ettiramiz.

* * *

Ertalik mavzusi: «MEHMONDO‘STLIK» (Toshkent shahri-dagi 4-maktab ish tajribasidan).

Ertalik maqsadi: o‘quvchilarda mehmon kutish odobi haqida bilim, malaka hosil qilish va sehrli so‘zlar ma’nosini tushuntirish. Tadbirni o‘tkazish jarayonida bolalarda mavjud bo‘lgan ahillik, do‘stlik, mehribonlik, xushmuomalalik tushunchalarini rivoj-lantirish lozim.

Ertalik jarayonida qo‘llaniladigan usullar: jonli so‘z, o‘rgatish, tushuntirish, pand-nasihat kabi bo‘lishi mumkin.

Ertalikka tayyorgarlik va jihozlash: suhbatni uyushtirishdan oldin quyidagi tayyorgarlik ishlari ko‘rildi: ikki-uch o‘quvchiga mehmon va mehmondo‘stlik haqidagi she’r, maqol va hikoya-larni o‘qib, uni o‘rganish vazifasi beriladi.

Suhbatning rejasi tuzilib, suhbat o‘tkaziladigan joy: mahalla yoki klub belgilanadi. Tadbir o‘tkaziladigan joy:

• Yo‘qcha guruch osh bo‘lur, Mehmon ko‘ngli shod bo‘lur.

* * *

• Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan.

* * *

• Mehmon otangdan ulug‘.

* * *

• Mehmonga osh qo‘y, Ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y, kabi hikmatli so‘zlar bilan chiroyli qilib bezatiladi. Bino eshigiga «Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!» shiori ham yozib qo‘yilgan. Bir necha o‘quvchilar mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib olishadi.

Suhbatni kirish so‘zi bilan Ziroat opa ochadi. «Hurmatli bo-lalar va aziz ota-onalar, dedi Ziroat opa mehmonlarga qarata, mehmondo‘stlik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fazilatlardan biridir. O‘zbek xalqi qadim-qadimdan uyiga kelgan qon-qarindosh, ta-nish-bilish va o‘rtoq-do‘stlarini ochiq chehra bilan kutib, ularning ko‘nglini xushnud qilishgan. Shu an’analarni bizning ota-bobo-larimiz davom ettirishadi. Mana bugun biz ham ana shu an’anaga amal qilib, bu yerga to‘plandik. Biz mezbon bo‘lib, mehmonlari-mizga jon-u dilimiz bilan izzat-hurmatda bo‘lamiz.

So‘ngra so‘zini 2-«b» sinf o‘qituvchisi Xolisxon opaga beradi. Xolisxon opa yig‘ilganlarga mehmon va uning kutib olinishi ha-qida quyidagilarni gapirib beradi:

Xalqimiz «Mehmon oldida mushugingni ham pisht dema» naqliga amal qilib kelgan. Mehmonni «Xush kelibsiz», «bosh ustiga» degan so‘zlar bilan kutib olish lozimdir. Uyingizga kelgan meh-monni ochiq chehra, xush tabassum bilan kutib olish har bir oila a’zosining muqaddas burchidir.

Bu ish barcha oila a’zolarining ahillikdagi mehnati tufayli bajariladi. Agar oilaning hamma a’zolari bir-biriga o‘zaro yordam berib, ahillik bilan mehmon kutishsa, u holda hamma ish joyida bo‘ladi. Mehmon mezbondan xursand bo‘lib, uyiga qaytadi.

Shundan so‘ng Ziroat opa: «Qani, kim mehmondo‘stlik ha-qidagi she’rlardan aytib beradi?», deb o‘quvchilarga murojaat qiladi.

Bir necha o‘quvchi yoddan she’rlar o‘qib beradilar:

«Mehmon» so‘zi bizga aziz, Chiroyli konfetlarga,

Do‘st mehribon. To‘lib ketdi dasturxon.

Bo‘lsa tez-tez mehmon kutish, Yana ancha mehmonlar,

Yaxshi qanday. Kelishardi biz tomon.

Dasturxonda mehmon so‘zi Dasturxonga gul yasab,

Tug‘ishganday Qo‘ydik turli qog‘ozdan.

Shundanmikin mehmonlarni Choy qaynatib barchaga,

Xush ko‘rdik,Quyib berdik oz-ozdan...

Uyga mehmon kelmay qolsa

Yana bir necha she’rlar o‘qilgandan keyin o‘qituvchi so‘zni mehmonlarga beradi. Mehmonlardan shu mahallada yashovchi qahramon ona Mashhuraxon Ro‘ziyeva quyidagilarni gapirib berdi: «Aziz bolalarim, mehmon bizning eng hurmatli odamimiz hisoblanadi, agar biznikiga mehmon kelsa, butun oila a’zolarimiz uning xizmatiga tayyor turamiz. Men ovqatga urinsam, nabiram Ozoda sabzi-piyoz to‘g‘raydi, ikkinchi nabiram Homit go‘sht bo‘laklaydi, uchinchisi Hosil esa suv keltirib, o‘choqqa olov yoqib beradi. Shunday qilib, mehmon uchun atalgan palovimiz tez tayyor bo‘ladi. Chunki biz hammamiz ahillik bilan bir-birimizga yordam berib ishladik-da! Hurmatli bolalar, agar sizlar ham uyingizga mehmon kelganda ota-onalaringizga ahil bo‘lib yor-dam bersangiz, u holda mehmonlaringizni yaxshi kutib olgan, ko‘nglini xushnud qilgan bo‘lasiz».

Shundan so‘ng o‘qituvchi: «Qani, kim uyiga mehmon kelganda qanday xizmat qilishi haqida gapirib beradi?» deb o‘quvchilarga savol bilan murojaat qiladi. Bu savolga bir necha o‘quvchi javob beradi. Quyida ba’zi o‘quvchilarning javobidan namunalar keltiramiz:

— «Bizning uyimizga mehmon kelsa, bayram bo‘lib ketadi. Biz juda xursand bo‘lamiz. Men mehmonni intizor qilib qo‘ymaslik uchun oyimga yordam beraman va ukalarimga qarayman».

— «Mehmon kelganda men darrov qo‘liga suv quyib, oyoq kiyimlarini to‘g‘rilab, changlarini artib qo‘yaman».

— «Bizning qo‘shnimiznikiga mehmon kelsa, bolalari ko‘-chaga o‘ynagani chiqib ketishadi. Oyisi yolg‘iz o‘zlari hamma ishni qiynalib bajarishadi. Ularning uyida mehmon uchun taom-lar ham tez tayyor bo‘lmaydi».

So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini umumlash-tiradi: «Mehmon kutish juda yaxshi odat. Mehmon kelganda, odam juda xursand bo‘ladi. Mehmonning ko‘ngli juda nozik, shu-ning uchun mehmonni ochiq chehra bilan kutib olmoq lozim. Hozir Vali aytganidek, uyga mehmon kelsa-yu, bolalar hamma ishni tashlab, ko‘chaga o‘ynash uchun chiqib ketsa yaxshi bo‘-ladimi? Yo‘q, albatta.

Shuning uchun uyimizga mehmon kelganda, biz oyimiz, dadamiz va ukalarimiz bilan birgalashib, xizmat qilsak, tahsinlarga sazovor bo‘lamiz». Suhbat oxirida o‘qituvchi: «Bolalar, qani kim ahil jamoa mehnati haqida maqol va she’rlardan aytib beradi?» deb o‘quvchilarga murojaat qiladi. O‘quvchilar biroz o‘ylanib olishgach, javob berishadi.

Quyida ana shunday javoblardan namunalar keltiramiz.

- Kuch — birlikda.
- Yakka otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong‘i chiqmas.
- Parokanda lashkar ishga yaramas, Yuzta ahil lashkar 100 mingtaga bas.
- Ahil bo‘lsa, olov ichra ham inson, Ahil kishilarga olov ham oson.

Yuqoridagi kabi mahalla bolalari va ota-onalar birgalikda Quddus Muhammadiyning «Bir mayizni qirq bo‘lib yeganlar» she’ri asosida ham axloqiy suhbat o‘tkazishlari mumkin.

Suhbatning asosiy maqsadi: o‘quvchilarda ahillik, do‘stlik va hamjihatlikni tarbiyalash. Quyida ana shu mavzudagi suhbatni o‘tkazish metodikasini bayon etamiz.

Suhbat mazmunini bolalar ongiga yetkazish uchun quyidagi-larga e’tibor berish lozimdir:

1. «Bir mayizni qirq bo‘lib yeganlar» maqolining kelib chiqish tarixini tushuntirish. Bunda o‘qituvchi quyidagi misralarni o‘qib berib, uning mazmunini so‘zlab berishi mumkin.

O‘qituvchi: Bir mayizni qirq bo‘lib,
Yeng deyishgan bobolar.
Bobolarimiz so‘ziga
Qiziqishar bolalar.
Qirq og‘ayni ham bo‘ldik,
Qirq tan-u jon bo‘ldik.
Bir mayizni qirqqa bo‘ldik,
Mayiz qirqqa bo‘lingach,
Ko‘zga, qo‘lga ilinmas
Bobolar qanday bo‘lgan
Og‘zida ham bilinmas
Bobolar qanday degan.

Buni o‘ylab topaylik
Maqol mag‘zini chaqaylik.

O‘quvchilarga maqolning mag‘zi va asl mohiyatini tushunti-rish uchun keltirilgan she’rlar davomini o‘quvchilarga o‘qitib va mazmunini so‘zlatib, uni o‘quvchilar hayoti bilan bog‘lash kerak. So‘ngra o‘qituvchi bir mayizni qirqqa bo‘lish maqol ekanligini, bu maqolning ma’nosini bir jon-u bir tan bo‘lib, og‘ayni, inoq do‘st bo‘lishi, bir-birini qo‘llashdan iborat ekanligini tushun-tirmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘z fikrini quyidagi she’riy misra bilan mustahkamlashi mumkin:

Tolibni so‘zi a’lo,
Bir mayizni qirqqa bo‘lish
Bu emas mayiz bo‘lish
Bu butunlay boshqa ish
Mayiz teng qirqqa bo‘lish
Odam fe’lini keng qilish
Bu katta yo‘l-yo‘riq ish
Hamma bir teng do‘st bo‘lish
Bekam-u beko‘st bo‘lish
Og‘ayni, o‘rtoq bo‘lish
Bir-biriga inoq bo‘lish
Bir-birini qo‘llash
Bir-biriga yordam berish
Bir kishi mingni demoq
Ming kishi birni demoq
Hamma jon-u tan bo‘lmoq
Olam bir Vatan bo‘lmoq.

O‘qituvchi yuqoridagi she’rni o‘qib bergach, o‘quvchilardan maqolning asl mazmuni:

Bobolarning orzusi
Bir mayizni qirq bo‘lish
Qirqilmas o‘rtoq bo‘lish.

ekanini alohida ta’kidlashi va o‘quvchilar o‘rtasida ham mustahkam hamkorlik, ahillik bo‘lishi lozimligini uqtirmog‘i maqsadga muvofiqdir. Shundan so‘ng o‘qituvchi suhbatni mustahkamlash va bolalarga ahillik, hamjihatlik bilan bajarilgan mehnat haqidagi tasavvurini shakllantirish maqsadida quyidagi savollarni berishi o‘rinlidir:

1. O‘qilgan she’r orqali bolalar nima haqida fikr yurgizishdi?

2. O‘tmishda ota-bobolarimiz qo‘llab kelgan maqollar xususida qaysi o‘quvchi to‘g‘ri fikr yuritdi?

3. Bobolarimiz qanday yashaganlar, ular bizlarga qanday bo‘-lishni nasihat qilganlari ilhom bag‘ishladi?

4. O‘rtoq-do‘st ahil bo‘lishini qanday tushunasiz?

Bolalarda hamjihatlik hislarini shakllantirishga katta hissa qo‘shuvchi yuqoridagi suhbatlar maxsus tayyorgarlik ko‘rish orqali o‘tkazilgandagina yaxshi natija beradi. Tadbir katta aha-miyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqining o‘tmishi va o‘z ozodligi uchun kurashgan shaxslarning hayotiga doir uyushtiriladigan axloqiy suhbatlar ham o‘quvchilarda juda katta taassurot qoldiradi.

Mavsumiy ertaliklar tabiatning insonga in’om etgan yil fasl-laridagi rasm-rusum, marosim va bayramlarga bag‘ishlanadi. Ular: «Hosil bayrami», «Sumbula sayli», «Choy momo marosimi», «Navro‘zi olam» kabilarga bag‘ishlangan ertaliklar bolalarda mod-diy va ma’naviy hayot uyg‘unligini ta’minlaydi.

O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi tadbirlar ahamiyati

O‘quvchilar barkamolligini tarbiyalashda mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlar tashabbuskori sifatida Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A. Karimovning o‘rni alohidadir. Barkamol avlod tarbiyasi jarayonida o‘z shaxsining namunasi va faoliyati bilan har bir inson uchun ibrat bo‘layotir. Shu sa-babdan davlatimizda inson omiliga muntazam e’tibor berib ke-linmoqda:

2-yo‘nalish. Qadriyatlarimizni ulug‘lash, milliy bayram va marosimlarni tashkil etish metodikasi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish o‘quvchilar ongiga, qalbiga quyidagi ma’naviy-madaniy g‘oyalarni singdirishda mu-himdir:

• «Xalqning maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, tarix si-novlaridan o‘tishda xalqning ruhini ko‘tarib, ularga tayanch va suyanchiq bo‘ladigan avlod bo‘lish.

• Jamiyatimiz va davlatimizda bo‘ladigan ko‘plab hayotiy muammolarga duch kelganda, ularning samarali yechimini topish qobiliyati shakllangan bo‘lishi.

• Ma’naviy qadriyatlarimizni, ilm-fan taraqqiyoti yutuqlari bilan boyitib borishda tashabbuskor bo‘lish.

• O‘zligimizni chuqurroq anglash.

• Zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoq-laridan unumli foydalanish kabi sifatlarga egalik qilishda xalqimiz-ning boy milliy qadriyatlari ijobiy ahamiyat kasb etadi.

3-yo‘nalish. Umumxalq bayramlarini nishonlash va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

1-sentabr — Mustaqillik kuni.

2-sentabr — Bilimlar kuni.

1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni.

21-oktabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun.

8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni.

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni.

21-mart — «Navro‘z» bayrami.

9-may — Xotira va qadrlash kuni.

1-iyun — Bolalarni himoya qilish kuni.

Yuqoridagi tadbirlarni tashkil qilish metodikasi:

1. Sinf saviyasi va tarbiyalanganligi darajasini hisobga olish.
2. Bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish.
3. Tadbirlarni zamonaviy talablar bilan boyitish, moddiy va ma’naviy bilimlarni uyg‘unlashtirish.
4. O‘qituvchining kasbiy mahorati.

1-sentabr — «Mustaqillik kuni» bayramini o‘tkazishda quyi-dagi bilim va tushunchalarni bolalarda shakllantirish muhim:

1. Mustaqillik mamlakatimizda yuksak ne’mat ekanligi, O‘z-bekiston istiqbol va istiqloliga munosib bo‘lish.
2. Xalqimizning boy ma’naviy merosi va ajdodlarimizning mero-sini o‘rganish, o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratish.
3. Mustaqillik tufayli farovon va tinch hayot kechirayotga-nimizni misollarda ko‘rsating.
4. Mustaqillik ne’matlaridan g‘ururlanish tuyg‘usi bilan yashash kabi g‘oyalarni o‘quvchilarga singdirish, bayramni samarali tash-kil etishning bosh maqsadidir.

21-mart — «Navro‘z» bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tad-birdan namuna.

«NAVRO‘Z»

Maqsad: o‘quvchilarning qadriyatlarimiz to‘g‘risidagi bilim-larini mustahkamlash, ularga «Navro‘z» bayramining xalqimiz hayotida tutgan o‘rnini tushuntirish: tevarak-atrof, bahor o‘simlik-lari va gullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Navro‘z taom-lariga ishlatiladigan ko‘katlar bilan tanishtirish. Go‘zallik va nafo-satga mehrini orttirish.

Kerakli jihozlar: ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, ko‘k manti uchun ishlatiladigan ko‘katlar, kuy-qo‘shiqlar qo‘yish uchun magnitofon.

Tadbirga tayyorgarlik: bolalar bilan birgalikda daladan ko‘katlar terib kelish, bog‘cha hovlisida joy hozirlab, dasturxon yozish, uning atrofiga kichkintoylarni o‘tkazish, ko‘katlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bayram haqidagi she’riy

parchalarni yodlash.
Tadbirning borishi:

Sinf rahbari: Bolalar, biz siz bilan avvalgi mashg‘ulotlarda qadriyatlar to‘g‘risida suhbatlashgan edik. Qani, kim aytadi: «qad-riyat» deb nimaga aytiladi?

O‘quvchilar javobi: ...

O‘qituvchi: Bugun xalqimiz qanday bayramni nishonlayapti?

O‘quvchilar javobi: ...

O‘qituvchi: To‘g‘ri, 21-mart «Navro‘z» kunida xalqimiz yangi yil bayramini nishonlagan. Shu kundan boshlab, tabiat jonlana boshlagan. Shu kuni odamlar uy-joylarini tozalab, ko‘kat va gullar bilan bezagan, ota-onalarni, yaqin kishilarni borib ko‘rishgan. O‘tgan yaqinlarining qabrlarini ziyorat qilishgan.

Bayramlarda bahor va uning ne’matlarini madh etib kuylangan. Qani, kim «Navro‘z» haqida she’r aytib beradi?

1-bola: Bog‘lar daryolarniki Tog‘lar lolalarniki Kim nima desa desin Bayram bolalarniki Bayram bolalarniki.

2-bola: Bog‘ bahorsiz qolmasin To‘kmasin tog‘ lolasin O‘zbekiston bag‘rida Navro‘zlar omon bo‘lsin Navro‘zlar omon bo‘lsin.

(Shukur Qurbon)

O‘qituvchi: «Navro‘z» bayrami qaysi jihatlar bilan sizga yoqadi?

O‘quvchi javobi: ...

O‘qituvchi: Bugun taomlarning ba’zi birlarini qanday tayyor-lashni sizga ko‘rsatish bilan birga, ularga ishlatish uchun terib kelishgan ko‘katlarimiz to‘g‘risida gaplashib olamiz. Qani, oldimizda turgan ko‘katlar qanday nomlanishi va qandayligini kim aytadi?

1-o‘quvchi (otquloqni qo‘liga olib): Otquloq.

O‘qituvchi: Xo‘sh, u qanday ko‘kat ekan?

2-o‘quvchi: Barglari otning quloqlariga o‘xsharkan.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, bundan tashqari uchburchak, tuxumsi-mon. Keng poya bog‘larida ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, to‘pgulli. Otquloq qayerda o‘sishini kim aytadi?

3-o‘quvchi: Nam yerlarda.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, nam yerlarda, o‘tloqlarda, tog‘ yon-bag‘ir-larida o‘sadi. Bundan tashqari, u tabobatda ichak kasalligi va ichdan qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladi. Unda K, C, B va boshqa dar-mondorilar bo‘lgani uchun ovqatga solinadi. Yana qanday ko‘-katlar terib keldik, qani kim aytadi?

3-o‘quvchi: Mana bu ko‘katning nomi chumchuqko‘z. Bu ko‘-kat gullari chumchuqning ko‘ziga o‘xshar ekan. Barglarning ba’zilari tekis, chetlari sal o‘yilgan. Gullari qiyshiq.

O‘qituvchi: Bo‘yi, balandligi qancha ekan?

O‘quvchi: Bo‘yi bir qarich keladi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, 10 sm. Sizning qarichingizda bir qarich.

4-o‘quvchi: Mana bu jag‘-jag‘.

O‘qituvchi: Ba’zi viloyatlarda ochambiti deb ham ataladi.

5-o‘quvchi: Barglari to‘p-to‘p. Bir xillari mayda, poyasi ketma-ket joylashgan. Yo‘l yoqalarida, bog‘larda, ekinzorlarda o‘sadi.

O‘qituvchi: Yaxshi, bundan tashqari, gullar oq, mayda, shingilga to‘plangan bo‘ladi. Tarkibida C, K darmondorilari bor, tabobatda qo‘llaniladi. Keyingi ko‘katning nomi nima ekan, kim aytadi?

5-o‘quvchi: Ismaloq, barglari naysimon, qirqilgan bo‘larkan.

Tabobatda foydali ekan.

O‘qituvchi: Ular yovvoyi holda ekinzolar va o‘tloqlarda uch-raydi. Ismaloqning ba’zi turlari sabzavot sifatida ham yetishti-riladi. Ulardan bahorda somsa va boshqa taomlar pishiriladi.

O‘qituvchi: Yana qaysi ko‘kat qoldi, bolalar?

6-o‘quvchi: Yalpiz, barglari cho‘ziq, tukli, nam yerlarda, ariq bo‘ylarida o‘sadi, juda xushbo‘y.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, yalpiz gullari bandli, binafsharang bo‘-ladi. Tabobatda ishlatiladi. Ana endi ko‘katlarni tozalab may-dalaymiz, yog‘ qo‘shib sizlarga ko‘k somsa, manti, ko‘k chuchvara pishiramiz.

(Davraga Dehqonbobo kirib keladi.)

Dehqonbobo: Assalomu alaykum!

O‘qituvchi: Vaalaykum assalom. Keling, keling Dehqonbobo.

Bolalar Dehqonbobo bilan salomlashishadi:

Dehqonbobo: Nevaram Bahoroydan sumalak pishirish uchun bug‘doy berib yuborgan edim.

O‘qituvchi: Rahmat, bobojon, ana o‘sha bug‘doydan qozonga sumalak solib qo‘ydik, pishyapti.

Dehqonbobo: Qadrli bolajonlar, sizning bugungi bayramingiz-dan xabarim bor. Bolajonlarning yig‘ini qanday o‘tarkan, deb tabiatni, tevarak-atrofni kuzatdim. Qarasam, qora qarg‘a qolgan qorlar ustida o‘ynamadi, otxonada turgan ot xirillamadi, demak, havo aynimas ekan, deb kelaverdim.

O‘qituvchi: Dehqonbobo! Bizga sizning kuzatishlaringiz juda yoqdi. Siz ob-havoni yana qanday kuzatasiz? Bizga ham o‘rgating. Chunki biz uni faqat radio, televideniye yoki gazetalardagi ob-havo ma’lumotidan bilib olamiz.

Dehqonbobo: Juda yaxshi, bo‘lmasa, eshitinglar, agar qumursqa va chivin qanotlanib, havoda o‘ynashsa, o‘rgimchak to‘r to‘qisa, qisqichbaqa quruqqa chiqsa, qurbaqa qattiq qurillasa, qaldir-g‘ochlar cho‘milishsa, ilon isinsa, turna sayrab, qarg‘a past uchsa, mushuk eshikni timdalasa, bilingki, yomg‘ir yog‘adi.

Ot tepinib, sigirlar sutini tortsa, bug‘doy o‘rilganda, poya-ning ko‘ki o‘roqqa yuqsa, o‘rimdan keyin ang‘izdan suv chiqsa, tutunlar havoga ko‘tarilmasa ham yomg‘ir yog‘adi.

Yana yomg‘ir yog‘ishini ko‘rsatadigan alomatlar bor. Suv ko‘piklanib oqadi. Shudring tushmaydi, shabada kun chiqish tomondan esadi, falakda yulduzlar kichkina ko‘rinadi, osmondagi kamalakning har ikki uchi suvga tushadi, kun juda qattiq qiziydi. O‘quvchilar: Dehqonbobo, qachon kun sovushini aytib bering.

Dehqonbobo: Mayli, bolalarim, eshitinglar bo‘lmasa. Chuval-changlar yerga kirishsa, qaldirg‘ochlar balandlab uchsa, boy-o‘g‘lilar sayrasa, o‘rdaklar cho‘milishsa, g‘ozlar boshini yashirib, tumshug‘ini taqillatsa va bir oyog‘ini qanotining ostiga tiqsa, bilingki, sovuq tushadi. Bundan tashqari, it qorga ag‘anasa, sigir orqa oyog‘ini taqillatsa, ertalab quyosh yuzini tuman qoplasa ham sovuq tushishini anglatadi.

O‘qituvchi: Dehqonbobo, siz bu gaplarning hammasini ta-biatni kuzatib o‘rganganmisiz?

Dehqonbobo: Yo‘q, albatta, bobolarimizdan eshitganman, ularga qarab, ekin-tikinlarni rejalashtirganmiz.

Tarbiyachi va bolalar Dehqonboboga minnatdorchilik bil-dirishadi.

O‘qituvchi: Endi, Dehqonbobo, yo‘l bosib kelgansiz, damin-gizni oling, bolalarimiz sizga she’rlar o‘qib berishadi.

1-o‘quvchi: Osmon tiniq ko‘k shoxi,
Oq bulut kezar gohi
Gullarga ko‘miladi
Qandak o‘rikning shoxi.
Bog‘bon chiqar bog‘iga,
Cho‘pon ketar tog‘iga
Bolarilar g‘uvillab
Qo‘nar gul yaprog‘iga.
Qushlar uchib keladi
Shamol g‘ir-g‘ir yeladi
Quyosh gullar yuzini
Shu’lalarga beladi.
Suvlar shildirab oqar
Qo‘shig‘i dilga yoqar.
(Uyg‘un)

2-o‘quvchi: Yomg‘ir, yomg‘ir, yog‘aver Yog‘ib bo‘lgin ming chelak Yomg‘ir, yomg‘ir, yog‘aver Dalalarga sen kerak.

Yomg‘ir, yomg‘ir, yog‘ chaqqon,
Bizlarga ham sen kerak

Yog‘ib o‘tsang sen qachon
Ko‘rinar naykamalak.
(Aziz Abdurazzoq)

O‘qituvchi sumalak to‘g‘risidagi rivoyatni so‘zlab beradi. Bu orada sumalak suzilib, dasturxonga tortiladi. Dehqonbobo, tar-biyachi va tarbiyalanuvchilar ularni birga baham ko‘rishadi.

O‘qituvchi ko‘kat terishda, ularni aniqlashda, chuchvara, somsa va manti tugishda o‘rnak ko‘rsatgan tarbiyalanuvchilarni rag‘batlantirib, ularga sovg‘alar ulashadi. Sho‘x musiqa yangraydi. Hamma raqsga tushadi va tadbir yakunlanadi.

## TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANIDAN AMALIY MASHG’ULOTLAR ISHLANMALARI

### 1 - Amaliy mashg`ulot

### O’quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. Tarbiyaviy ishlarni vazifalari va turlari

Mashg`ulot maqsadi: Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to`g`ri tashkil qilish metodikasini o`rganish. Tarbiyaviy ishlarni tashkilda malaka va ko`nikmalarni berish. Tarbiyaviy ishlarning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab berish.

Metodik ta`minot: Plakatli ko`rgazma, tarqatma materiallar, mavzuga oid test savollari va adabiyotlar.

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni aniq maqsadga qaratilganligi.
2. Tarbiyaviy ishlarni o`quvchilar jamoasiga ta`siri.
3. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda qadriyatlarning o`rni.
4. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda shahs Yoshlar ittifoqiini tarbiyalash.
5. O`quvchilarning bir-biriga bo`lgan do`stona munosabatini mustahkamlash.
6. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda milliy an`analarimizdan foydalanish.

Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar shahs Yoshlar ittifoqii bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilarga asoslanadi.
Ulg`ayayotgan inson shahsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola o`smirning betakror va o`ziga hosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e`tiborda tutish zarur. Milliylikning o`ziga hos an`ana vositalariga tayanish, pedagoglar o`rtasida o`zaro hurmat munosabatlarini shaklantirish.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish:

1. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar kim rahbariligida olib boriladi?
2. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kimlar ishtirok etishi mumkin?
3. Trabiyaviy ishlarning bola tarbiyasidagi o`rni haqida gapiring.
4. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarga qanday mavzularni kiritish kerak?
5. O`quvchilarda do`stlik va o`rtoqlik munosabatlarini shakllantirishda qanday
6. Jamoalarda shahsni tarbiyalash qanday ahamiyatga ega?

**II. Amaliy topshiriqlar**

1. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejasi bilan tanishish.
2. Guruhdan va maktadan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullarini o`rganish.

**III. Adabiyotlar ro`yhati**

1.Karimov I.A «Barkamol avlod– o`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., 1997 y.

2.Mavlonova R.A, To`raeva O, Holiqberdiev K «Pedagogika» T., 2002 y.

3. Hasanboeva O «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» T., 1996 y.

## 2 - Amaliy mashg`ulot

**Mashg`ulot mavzusi: Tarbiyaviy soatlarni loyihalashtirish va o'tkazish.**

Mashg`ulot maqsadi: Ertalik bayramlarni o`tkazishda guruh rahbarining ish usullarini o`rganish. Ertalik bayramlarni tashkil etishda scenariysini tuzish metodikasi. Ertalik bayramlarni o`tkazishda pedagogik talablarni o`rganish.

Metodik ta`minot: Plakatli ko`rgazmalar, har hil mavzudagi rasmli ko`rgazmalar, tarqatma materiallar va mavzuga oid adabiyotlar.

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1. Ertalik bayramlarni o`tkazishda o`quvchilarning faolligini oshirish yo`llari.
2. Ertalik bayramlarni o`quvchilarning ruhiyatiga ta`siri.
3. Ertalik bayramlarni o`tkazish turlari haqida.
4. Ertalik bayramlarga dolzarb mavzuni tanlay olish.

Ertaliklarni o`tkazishdan oldin bolalarning ruhiyati, qiziqishni uyg`ota bilishda o`qituvchi-tarbiyachining tadbirkorligi lozim bo`ladi.

Ertalik scenariyasini tuzganda bolalar jamoasining tarbiyalangan darajasini hisobga olish lozim. Ertalik bayramini rejalashda hamma bolalar ma`lum topshiriqqa ega bo`lishi kerak.

Ertalik bayramida ishtirok etadigan talablarni ruhlantirish ertalik bayramlari turli-tuman shakllarda o`tkazilishi mumkin:

– uchrashuvli ertaliklar;

– ertali ertaliklar;
– mavsumiy ertaliklar;
– bobolardan bolalarga ertaliklari va boshqalar.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish

1. Ertalik bayramlarni o`tkazish usullari haqida so`zlab bering?
2. Ertalik bayramlarni o`tkazishda qanday mavzularni tanlaysiz? Misol keltiring.
3. Ertalik bayramlarning bola tarbiyasiga qanday ta`siri bor?
4. Ertalik bayramini kim tashkil etadi?
5. Ertalik bayramini muvoffaqiyatli tomonlarini ko`rsatib o`ting.
6. «Ona tilim – jonu dilim» bayram ertaligi scenariysini tuzishni o`rganish.

**II. Amaliy topshiriqlar**

1. Ertalik bayramni tashkil etish usullarini o`rganish
2. Ertalik bayram scenariysini tuzishni o`rganish.

**III. Adabiyotlar ro`yhati**


1. «O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish». T., 2000 y.
2. O.Hasanboeva «Tarbiyaviy ishlar metodikasi». T., 1996 y.
3. U.Qoraboev «Tabiat bayramlari» T., 1988 y.
4. Z.Qo`ziev «Guruh rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish» T., 1997 y.


## Mashg`ulot mavzusi: Guruh rahbari va o`quvchilarning darsdan tashqari birlashmalari.

Mashg`ulot maqsadi: Guruh rahbarining o`quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini o`rganish. o`quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab darsdan tashqari birlashmalarni tashkil etish usullarini o`rganish. o`quvchilarning darsdan tashqari birlashmalari ish faoliyati bilan yaqindan tanishish.

Metodik ta`minot: Plakatli ko`rgazma, tarqatma materiallar, test savollari va mavzuga oid adabiyotlar.

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1.Maktabda tarbiyaviy ishlarni to`g`ri tashkil etish
2.O`quvchilarning faolligini aniqlash
3.O`quvchilarning darsdan tashqari birlashmalarini tashkil etish
4.O`quvchilar birlashmalarining turlari
5.Darsdan tashqari birlashmalar orqali, o`quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash
6.O`quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish usullari

Maktabda tarbiyaviy ishlarning amalga oshirilishida huddi shu birlashmalar juda katta ahamiyatga egadir.

O`quvchilarning dunyoqarashi, shahsiy jihatlari ma`ruzachilar guruhi, tashviqotchilar brigadasi, harbiy shuhrat muzeyi kabi bir qator darsdan tashqari birlashmalar faoliyatida shakllanadi. Shanbaliklarda, o`quvchilarning ishlab chiqarish brigadalarida, yuqori guruh qurilish guruhlarida qatnashish ularning mehnatga bo`lgan ongli munosabatini tarbiyalaydi. Turistik guruhlarda, sport bo`limlarida, ijodiy jamoalarda, turli-tuman klub va birlashmalarda ular madaniy dunyoqarashini o`stiradilar, jismonan chiniqadilar, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantira-dilar.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish

1.Darsdan tashqari birlashmalar deganda nimani tushunasiz?

2.Darsdan tashqari birlashmalarning o`quvchilar tarbiyasiga ta`siri qanday?

3.Darsdan tashqari birlashmalarning ish faoliyati nimaga qaratilgan bo`lmog`i kerak?

4.Qobiliyatli o`quvchilarni qanday aniqlash mumkin?

5.Darsdan tashqari birlashmalarda guruh rahbarining vazifalari nimalardan iborat?

6.Darsdan tashqari birlashmalarga kim rahbarlik qiladi?

**II. Amaliy topshiriqlar**

1.O`quvchilarning darsdan tashqari birlashmalari bilan yaqindan tanishish va ish faoliyatini kuzatish

2.Ijodkor qobiliyatli o`quvchilarni aniqlash usullarini o`rganish

**III. Adabiyotlar ro`yhati**

1.«O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish». T., 2000 y.

2.«Guruh rahbari». T., 1999 y.

3.Z.Qo`ziev. «Guruh rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish». T., 1997 y.

4.R.Mavlonova,

## 3 - Amaliy mashg`ulot

**Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash shakllari. Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlar mazmuni**

Mashg`ulot maqsadi:

Ota-onalar bilan guruh rahbarining hamkorlik ishlarini o`rganish. Ota-onalar majlisiga guruh rahbarining tayyorgarlik faoliyatini o`rganish. Guruh rahbarining ota-onalar majlisini o`tkazish metodikasini o`rganish.

Metodik ta`minot: Sxemali ko`rgazmalar, tarqatma materiallar, ota-onalar uchun anketa savollari va mavzuga oid adabiyotlar

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1.Ota-onalarni guruh majlisiga jalb qilish usullari.

2.Guruh rahbarining ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash usullari.

3.Guruh ota-onalar majlisida ko`riladigan masalalarni rejalashtirish usullari.

4.Guruh majlisini tashkil qilishda guruh rahbarining mahorati.

5.Guruh ota-onalar majlisini o`tkazish usullari.

6.Guruh ota-onalar majlisida ota-onalarning fikrlarini, qiziqishlarini, talablarini, sharoitlarini hisobga olish.

Har bir o`quv yilining boshida o`tkaziladigan ota-onalarning guruh majlisini ilmiy, nazariy, ma`naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo`lishiga zamin hozirlaydi. Bundan majlis o`qituvchidan ko`p bilim va mahorat talab etadi.

Dastlab undagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular: har bir oila a`zosi va shart-sharoiti haqidagi ma`lumotta ega bulish.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish

1.Ota-onalar bilan birinchi suhbat qaysi mavzuda bo`lishi mumkin?

2.Ota-onalarning maktabga bo`lgan qiziqishini qanday oshirish mumkin?

3.Guruh rahbari ota-onalar bilan qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

4.Tarbiyasi og`ir o`quvchining ota-onasiga sizni maslahatingiz qanday?

5.A`lochi va tashkilotchi o`quvchining ota-onasiga maslahatingiz qanday bo`lishi mumkin?

6.Ota-onalarga o`quvchilarga ta`sir ko`rsatadigan qaysi talablarni qo`yish mumkin?

**II. Amaliy topshiriqlar**

1. Guruh rahbarining ota-onalar guruh majlisini o`tkazish rejasi bilan tanishish.

2. Guruh rahbarining «Ota-onalar bilan suhbat» daftari va hamkorlik ishlari bilan tanishish.

**III. Adabiyotlar ro`yhati**


1. O.Hasanboeva «Tarbiyaviy ishlar metodikasi». T., 1996 y.
2. A.Munavvarov. «oila pedagogikasi» T., «O`qituvchi» 1994 y.
3. O.Musurmonova «Oila ma`naviyat – milliy g`urur» T., 1999 y


## 4 - Amaliy mashg`ulot

## Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.

Mashg`ulot maqsadi: Ota-onalar bilan guruh rahbarining hamkorlik ishlarini o`rganish. Ota-onalar majlisiga guruh rahbarining tayyorgarlik faoliyatini o`rganish. Guruh rahbarining ota-onalar majlisini o`tkazish metodikasini o`rganish.

Metodik ta`minot: Sxemali ko`rgazmalar, tarqatma materiallar, ota-onalar uchun anketa savollari va mavzuga oid adabiyotlar.

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1.Ota-onalarni guruh majlisiga jalb qilish usullari.

2.Guruh rahbarining ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash usullari.

3.Guruh ota-onalar majlisida ko`riladigan masalalarni rejalashtirish usullari.

4.Guruh majlisini tashkil qilishda guruh rahbarining mahorati.

5.Guruh ota-onalar majlisini o`tkazish usullari.

6.Guruh ota-onalar majlisida ota-onalarning fikrlarini, qiziqishlarini, talablarini, sharoitlarini hisobga olish.

Har bir o`quv yilining boshida o`tkaziladigan ota-onalarning guruh majlisini ilmiy, nazariy, ma`naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo`lishiga zamin hozirlaydi. Bundan majlis o`qituvchidan ko`p bilim va mahorat talab etadi.

Dastlab undagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular: har bir oila a`zosi va shart-sharoiti haqidagi ma`lumotta ega bulish.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish

1.Ota-onalar bilan birinchi suhbat qaysi mavzuda bo`lishi mumkin?

2.Ota-onalarning maktabga bo`lgan qiziqishini qanday oshirish mumkin?

3.Guruh rahbari ota-onalar bilan qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

4.Tarbiyasi og`ir o`quvchining ota-onasiga sizni maslahatingiz qanday?

5.A`lochi va tashkilotchi o`quvchining ota-onasiga maslahatingiz qanday bo`lishi mumkin?

6.Ota-onalarga o`quvchilarga ta`sir ko`rsatadigan qaysi talablarni qo`yish mumkin?

**II. Amaliy topshiriqlar**

1. Guruh rahbarining ota-onalar guruh majlisini o`tkazish rejasi bilan tanishish.

2. Guruh rahbarining «Ota-onalar bilan suhbat» daftari va hamkorlik ishlari bilan tanishish.

**III. Adabiyotlar ro`yhati**


1. O.Hasanboeva «Tarbiyaviy ishlar metodikasi». T., 1996 y.
2. A.Munavvarov. «oila pedagogikasi» T., «O`qituvchi» 1994 y.
3. O.Musurmonova «Oila ma`naviyat – milliy g`urur» T., 1999 y

4. «O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish». T., 2000 y.

**5 - Amaliy mashg`ulot**

**Mashg`ulot mavzusi: Intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari.**

Mashg`ulot maqsadi: Guruh jamoasida intizomlilik darajasini aniqlash usullarini o`rganish. O`quvchilar intizomini mustahkamlashda guruh rahbari va ma`naviyat ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarining hamkorlik ishlari bilan tanishish. O`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda ta`lim va tarbiya jarayonining bog`liqligini tahlil qilish.

Metodik ta`minot: Plakatli ko`rgazmalar, og`zaki savol-javoblar, tarqatma materiallar va mavzuga oid adabiyotlar.

**Mashg`ulotni o`tkazish rejasi**

1.O`quvchining intizomida oilaning o`rni.

2.Intizomlilikni rivojlantirishda guruh rahbarining vazifalari.

3.Guruh o`quvchilarining intizomlilik darajasini aniqlash usullari.

4.Guruh o`quvchilariga intizomlilikni tarbiyalashda maktab ma`muriyati va fan o`qituvchilarining ishtiroki.

5.Intizomlilikni tarbiyalashda tarbiyaviy ishlarning ijobiy ta`siri.

O`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan`anaviy, suhbat, o`yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

1-2-3-4 guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim.

O`yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarihiyligi va zamonaviyligi bilan odob-ahloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

**Savol va topshiriqlar**

Talabalarning bilimini tekshirish

1.Intizomli o`quvchini izohlab bering.

2.Intizomli o`quvchi bo`lishda oilaning ta`siri bormi?

3.O`quvchilar tarbiyasiga guruh rahbarining munosabatini izohlab bering.

4.Jamoa orqali intizomlilikni tarbiyalash mumkinmi?

5.Tarbiyaviy tadbirlarning o`quvchi tarbiyasiga ijobiy ta`sirini izohlab bering?

6.Ahloqiy tarbiyani izohlab bering.

**II. Amaliy topshiriqlar**

1. Intizomlilikni tarbiyalashda o`quvchilarda tarbiyaviy mashg`ulotlarning o`tilishini kuzatish va tahlil qilish.

2. Guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning rejasi bilan tanishish.

III. Adabiyotlar ro`yhati


1. R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Holiqberdiev. «Pedagogika» T., 2002 y.
2. Z.Qo`ziev «Guruh rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish» T., 1997 y.
3. «O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish». T., 2000 y.


## GLOSSARIY

| Termin | O'zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|---|---|---|
| Pedagogika | Pedagogika - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish konuniyatlari xakidagi fandir | Design pedagogy is the area of inquiry into processes and tools for design learning and education. |
| Metod | Metod - eng umumiy ma'noda maksadga erishish yuli, usuli | Metod - a way of doing something especially a systematic way |
| O'qitish metodi | Ukitittt metodlari ta'lim maksadiga erishishga doir usul va koidalar yigindisi | Teaching metod - the principles and methods of instruction |
| Abstraktlash | Mavxumlashtirish orkali nazariy umumlashmalar hosil qilishdan iborat ta'lim metodi | Abstraction in its main sense is a conceptual process by which general rules and concepts are derived from the usage and classification of specific examples, literal ("real" or "concrete") signifiers, first principles, or other methods |
| Adaptatsiya | Yangi me'yor, an'ana va kadriyatlarni uzlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni | Training is aimed at employees who are assuming new management functions. |
| Akmeologiya | Insonni uz tarakkiyoti dinamikasida, takomili hamda xayot faoliyatining turli boskichlarida uzidagi eng kuchli kobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini urganadigan fan tarmogi | Acmeology is a new direction of interdisciplinary researches of the person. |

| | | |
|---|---|---|
| Pedagogik mahorat | Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yukori | It is an art of communicating a message with impact on audience |
| Takt | Takt axlokiy tushuncha bulib, u insonlarning uzaro munosabatlarini muvofiklashtirish, tartibga solishni talab etadi | Tact is skill teaching general education subject |
| Pedagogik taktika | Pedagogik takt - ukituvchi kasbiy maxoratining asosi bulib, ukuvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir utkazish, mulokotni insonparvarlik tuYFulari asosida urnatish ulchovi, ukuvchilarda mustakil fikr yuritishni xdmda ongli intizomni tarkib toptirish kunikmalarini x,osil qilish shaklidir. | Professional quality of the teacher, with which he, the student applies the most effective means to influence education |
| Qobiliyat | Qobiliyat - odam psixikasining eng muxdm xususiyatlaridan biri bulib, bilim, kunikma va malakalarni egallash dinamikasida aks etadi | Possession of the qualities required to do something; necessary skill, competence, or power |
| Kommunikativ qobiliyat | Ukituvchining ta’lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maksadga karatilgan munosabatni urnata olish kunikmasi | Communication skills are the key to developing (and keeping) friendships and to building a strong social support network. |
| Pedagogik artistizm | Pedagogik artistizm - pedagogik ijodkorlikning barcha boskichlarida uz aksini topuvchi vokelikdir. | Pedagogical artistry is the phenomenon functioning with varying degrees of activity in the process of pedagogical creativity |

| | | |
|---|---|---|
| ERASMUS | (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshka dasturlari asosida chet ellarda taxsil olish imkoniyatiga ega buladilar. | (European Community Action Scheme for Mobility of University students) on the basis of the TEMPUS and other programs will have the opportunity to study abroad. |
| Bolonya deklaratsiyasi- Bologna Declaration | 2001 yilda 29 ta Evropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi. Evropa ta'lim xududini yaratilishi. Bolonya deklaratsiyasiga kura diplomlarning uzaro tan olinishi, ya'ni ukitittt natijalarini yakuniy kursatkichlarning uzaro tan olinish muddati - 2010 yil deb belgilangan edi. | In 2001, 29 countries of the European education ministers signed the Bologna Declaration. The creation of the European education area. Mutual recognition of diploma according to the Bologna Declaration, the mutual recognition of the final results of the training indicators for the period of 2010 respectively. |
| Vaziyat- situation | (situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - axvol) - muayyan vaziyat, axvolni hosil kiladigan shart-sharoitlar va xolatlar uyushmasi. | (Situato) (the situation in Latin - the situation) - specific situation, the situation creates the conditions and circumstances of the Association. |
| Vebinar usuli - Webinars method | dars seminar yoki konferentsiya Internet orkali bir vaktda xozir bulgan talabalar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab utilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilishi. | Courses, seminars or conferences with the students present at the time audio and video over the Internet (and mentioned in previous posts, many interactive options) to live. |

| | | |
|---|---|---|
| Dasturlashtirilgan ta'lim berish- Programmed learning | Dasturlashtirilgan ta'lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriklarni namoyon kiluvchi, urgatuvi dastur tashkil etadi. U butun ukitittt jarayonini boshkaradi. | Learning the basic tasks, the training program. It manages the entire learning process. |
| Keys-stadi - Case study | (inglizcha sase - tuplam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon kilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maksadga muvofik tarzdagi echimi variantlarini izlashga yunaltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli taxlil etilishiga asoslanadigan *ta'lim uslubidir.* | (English Chassis kit, clear the situation, study the field), Casey explained and trained the way of solving the problem formulation and the purpose of his options Search Ref concrete situation, real or artificially created problem-based analysis of the situation of the teaching methods. |
| Kredit - Credits | Host universitetida (kabul kiladigan universitet) muvaffakiyatli utilgan barcha fanlar Post - universitetda ( talabani boshka OTMga junatgan universitet) xisobga olinishi zarur. | Host University (the university) has successfully passed all the subjects of post - university (university students sent OTMG) should be taken into account. |
| Kredit (Credit) | shartli sinov birligi bulib, talabaning ukuv fanining ma'lum bir kismini utganligi xakidagi ma'lumot beradi. X,ar bir ukuv faniga ma'lum mikdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni talabalarning mexnat sarfiga mos xolda belgilanadi | Conditional test unit, students study science in a specific part of the report to the information. Each school science allocate a certain number of credit units. Credit is determined by the number of units according to the students' labor costs. |

| | | |
|---|---|---|
| Moderator - moderator | K,abul kilingan koidalarga amal qilish tekshiradi, talabalarning mustakil fikrlash va ishlash kobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma’lumotni, seminarni, treninglar va davra suxbatlarini boshkaradi, fikrlarni umumlashtiradi. | Checks the validity of the regulations adopted in the development of students' independent thinking and processing skills, knowledge, help to boost activity. Information, seminars, workshops and panel discussions, provide generalizes. |
| Modulli o’qitish - modular training | ukitishning istikbolli tizimlaridan biri xisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy kobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxttti moslashgandir. | Because it is one of the promising systems of education in educational opportunities for recipients of knowledge and creative skills development system is the best fit. |
| Muammoli vaziyat - a problematic situation | Mazkur xolda vaziyat sub’ektining xozirgi vaktda yoki kelgusidagi maksadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi. | Currently the subject of the situation in this case understood the situation or endanger the future to achieve the objectives. |
| Muammoli ta’lim - problematic training | muammoni xal etish FOyasi yotuvchi, yaxlit tizim.Muammoli ukitish xam amaliy, xam nazariy-bilish xususiyatidagi muammoli vaziyatlarni xal etish orkali yangi bilimlarni egallashga asoslangan. | That underlie the idea of solving the problem, a holistic training tizim.Muammoli both practical and theoretical know-featured solution to problematic situations based on new knowledge. |
| Rivojlantiruvchi ta’lim - developing training | ukituvchining asosiy vazifasi bilish mustakilligi va kobiliyatlarini rivojlantirshga yunaltirilgan, talabalarni | Aimed to improve the ability to learn independence and the role of the teacher, the students' educational activities. |

| | | |
|---|---|---|
| | uxuv faoliyatini tashkillashtirittt xisoblanadi | |
| Tyutor - Tyutin | *(Tutorem-lotincha)* ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi xollarda ma'ruza uxituvchisi bilan talaba orasidagi boFlovchi rolini xam bajaradi. Bunda ma'ruachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslaxatchi va ustoz rolini bajaradi. | (Tutored Latin) serves as a mentor coach. In some cases, the report fulfills the role of a link between a teacher and a student. At the same time, by ma'ruachi knowledge and skills acts as an advisor and mentor. |
| Fasilitator - facilitators | (ingliz tilida *.facilitator., latinchafacilis-engil,* xulay)- guruxlardagi faoliyat natijasini samarali baxolash, muammoning ilmiy echimini topishga yunaltirish, guruxdagi komunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi. | (English .facilitator latinchafacilis lightweight, easy) to assess results of the working groups, such as the development of the group to find a solution to the problem of scientific and other communications functions. |
| **Bunyodkor shaxs Creative personality** | ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs. | an individual who carries out objective creativity as a process and as a result and produces high quality creative products |
| **Davrlashtirish Periodization** | (yunon. "peridos" - "doira buylab aylanish") - muayyan hodisani o'zida qandaydir yakunlangan jarayonni kamrab olgan ma'lum vakt birliklariga ajratilishi. | (from Greek l. "peridos" - gyre, helix,) - division of a certain phenomenon into units of time that comprise a completed process |

| | | |
|---|---|---|
| **Kasbiy-ijodiy imkoniyat**<br><br>**Professional and creative ability** | 1) kasbiy kompetentsiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini uzlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layokat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi. | 1) possessing professional competence and skills; 2) mastering basics of professional creativity methodology; 3) level of development of creative thinking; 4) development of professional and creative tendency and personal qualities. |
| **Kasbiy-ijodiy faoliyat**<br><br>**Professional and creative activity** | mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy xal qilish muvaffakiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-xarakati. | an innovative behavior or an activity of a specialist characterizing his success in solving professional issues in a creative way. |
| **Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi** | ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat | a doctrine about logical organization and composition of a creativity as an object of a |

**Adaptatsiya (ko'nikish) -** SHahs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir etish, moslashish jarayoni.

**Akmeologiya -** Kattalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlanishi, mustaqil bilim egallashi, kasbni takomillashtirish haqidagi fan.

**Akseleratsiya** – Ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishining tezlanishi.

**An'analar -** Jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va hususiyatlarining takrorlanish tarzi.

**Audirovanie –** Nutqni ogzaki qabul qilish va tushunish, so'zlashuv, yozuv, o'qish bilan bir qatorda nutq faoliyatining bir turi.

**Ahloqiy tarbiya –** Talabalarda umuminsoniy, ahloqiy tamoyillariga sodiq bo'lish, jamiyat ahloqiy talablari va me'yorlarini hisobga

olgan holda o'z hatti-harakatlarini tanlay olish mahorati, ahloqiy tafakkur tizimini shakllantirish.

**Afsona –** Forscha so'zdan olingan bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalar.

**Aqliy tarbiya -** Talabalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar: sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

***Aqllilik*** – Biror ishni bajarishda shoshma – shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

**Bilim** – Talabalar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda ijtimoiy munosabatda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlari, omillari va tushunchalarini o'zlashtirish natijalari.

***Bilish qobiliyati*** – Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir.

***Vatanparvarlik*** – Kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy – ahloqiy hislatlari, fazilatlaridir.

***Vosita*** – Ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari – asbob, qurol va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.

**Global -** To'liq, umumiy, universal.

**Gnostik faoliyat** – Pedagogik faoliyatning natijalarini tekshirish va baholash, uning kechishi va samaradorligini tahlil qilish.

**Diskussiya** – O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.

**Doston –** Qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladigan xalq orasidagi yirik hajmli etnik asar.

***Jazolash*** – Bu tarbiyalanuvchining hatti – harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

**Jamoa –** Insonparvarlik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan harakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy, ijobiy faoliyatga asoslangan kishilarning umumiyligidir.

**Jismoniy tarbiya** – Bolaning jismoniy hususiyatlarini anatomik, fiziologik, asab va boshqa tizimlarini har tomonlama rivojlantirish,

sog'lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari asoslari hamda jismoniy madaniyatining odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.

| | |
|---|---|
| *Idrok* – | Borliqni odam ongida aks etishidir |
| **Ijodkor shahs -** | Faoliyat natijasida, yangiliklar yaratishga intiluvchan va imkoniyati bor shahs. |
| *Ilmiy bilimlar* – | Voqelikning haqqoniy in'ikosidir |
| *Inson Yoshlar ittifoqii* – | Bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga hos shakli bo'lib, mahsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi. |
| **Insonparvarlik -** | ("inson" – arabcha; "parvar"- fors-tojikcha; "lik"- o'zbekcha – kishiga g'amho'rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baht-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi. |
| **Intizom** – | Maqsadga erishishda, qilinayotgan ishlarda keragicha va maslahatga muvofiq tartibli ravishda bajariladigan hatti – harakat. |
| **Irsiylik -** | Bolaning shaklan o'ziga hosliklarini belgilab beruvchi anatomik, fiziologik, psihologik, tashkiliy jihatlari, qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, talabalarga ota-onalari tomonidan o'tadigan irsiy belgilardir. |
| *Islohot* – | Isloh qilish, tubdan o'zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish. |
| **Istiqbol –** | Ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u kishining hatti-harakatlari, oldiga maqsadlar qo'yish yo'li bilan ta'minlaydi va intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. |
| **Istiqlol –** | (arabcha "istiqlol"- ko'tarilish, qaddini rostlash, o'sish, yuqori joyga erishish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti. |
| **Islom dini -** | (arabcha "aslama" – hudoga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish ); |
| **Ihtisos -** | Insonning hosil qilgan bilimlari va amaliy ko'nikmalarining majmui. Kishiga turmushining moddiy |

| | |
|---|---|
| | va ma’naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi. |
| ***Iqtisodiy madaniyat –*** | Jamiyat a’zolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, ho’alik yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat tavsifi. |
| ***Iqtisodiy savodhonlik -*** | Iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, ho’jalik faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini bilish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta olish |
| ***Iqtisodiy savodhonlikni shakllantirish-*** | Shahsning mustaqil iqtisodiy faoliyat ko’rsatishida zarur bo’ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko’nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda sodir bo’layotgan iqtisodiy o’zgarishlarni va davlatning iqtisodiy siyosatini anglashi, o’z turmush tarzini yahshilash hamda shahsiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi iqtisodiy ta’lim-tarbiya qoida va usullari, shakl va usullarini qo’llab, iqtisodiy bilim berish (olish). |
| **Iqtisodiy tayyorgarlik -** | Shahsning talab, ehtiyoj va imkoniyatiga qarab, tanlagan sohasi yoki kasbi bo’yicha nazariy va amaliy iqtisodiy bilimni egallashi hamda kasbiy- iqtisodiy faoliyatga tayyorgarlik holati. |
| **Iqtisodiy tafakkur -** | Iqtisodiy fikrlash tarzi bo’lib, iqtisodiy bilim, tushuncha va qonuniyatlarning o’quvchi ongida muayyan tizimda aks etishi, uning iqtisodiy ongi holati. |
| **Iqtisodiy ta’lim -** | Ijodkor shahs shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy bilim, ko’nikma, malakalarni uzluksiz va izchil o’zlashtirishga yordam beruvchi, shahs ehtiyoji hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslub, reja va dasturlar, metodikalar yordamida iqtisodiy bilim berish uchun maqsadga yo’naltirilgan pedagogik jarayon. |
| **Iqtisodiy tarbiya –** | Talabalarni iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo’lib, ularni ishlab chiqarish sohasidagi harakatlar ko’nikmasi, malakasi, iqtisodiy tafakkurni rivojlanishi bilan qurollantirish. |
| **Iqtisodiy tarbiyalanganlik -** | Shahs barkamolligini belgilovchi ahloqiy sifatlar, iqtisodiy faoliyatining ma’naviy, huquqiy va siyosiy yo’nalishlaridagi in’ikosi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi ijtimoiy foydali mehnat natijasi bilan belgilanadi. |

**Kasb –** Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turi. Unga umumiy yoki mahsus ma’lumotlar hamda amaliy tajriba yo’li bilan erishiladi.

**Kreativ** – Ijodiy.

**Kriteriy (mezon)** – Biror hodisaga baho berish uchun yoki biror narsani turkumlash (klassifikatsiya qilish) uchun zarur belgi; baholash va fikrlash uchun o’lchov.

***Kuzatish*** – O’rganish lozim bo’lgan pedagogik hodisani ma’lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob’ektiga oid bo’lgan aniq dalilli material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi

***Kuzatuvchanlik qobiliyati -*** Talabaning, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, talaba shahsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yahshi tushuna bilish bilan bogliq bo’lgan psihologik kuzatuvchanlikdir.

**Ko’nikma -** Malakaning tarkibiy qismi bo’lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o’z-o’zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda ko’p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.

**Madaniy meros -** Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ahloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, halq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma’naviy boyliklar majmui.

**Malaka –** Ongli ravishda bajariladigan ishning bir hil mehnati, ko’p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.

***Maorif*** – Ta’lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz hazinalarini jamlagan eski yozuvni o’rganish ham didaktik ta’lim mazmunidagi yangilikdir

**Mafkura -** (arabcha “mafkura”- nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.

**Mashg’ulot o’tkazishning faol shakllari –** Talaba va o’qituvchi faoliyatining o’zaro ta’sir etishini muhokama qilishiga mo’ljallangan ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari.

**Ma’lumot -** O’qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, talabada bilim, iqtidor va ko’nikmalarning o’zlashtirilganligi, bilish

qobiliyatining o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shahsiy sifatlari shakllanganligi, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarini qay darajada rivojlanganligini anglatadi. U ikki ma'noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli:

1. Habar – o'qitish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishilarning unga talabdor bo'lganlarga bilim berishi, etkazishi. Ma'lum qilish deb, til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir. 2. Bilim darajasi. O'qish, bilish, borliqdan ob'ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yigindisi – past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va hokazo.

**Ma'naviyat –** Arabcha "ma'naviyat" – ma'nolar majmui, "ma'no" yoki "ma'naviyatun", "ma'naviy g'oya" so'zlaridan olingan bo'lib, "ruhiy holat" degan ma'noni anglatadi. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlar, tushunchalari yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar.

**Ma'rifat-** (arabcha "arafa"- "bilmoq" so'zidan) – ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat.

**Mahalla -** (Arabcha "mahalla" – joy, o'rin, makon) – O'zbekistonning muayyan tarihiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma.

**Mahorat -** Turli malakalardan ishonchli, ijodiy ravishda foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutloq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning engilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.

**Mehnat -** Kishilarning qobiliyatini amalga oshirish jarayonidir.

**Mehnat tarbiyasi –** Talabalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Mehnatsevarlik, mehnatning har hil shakllarini tavsiya etish qobiliyatini namoyon etib, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish hususiyatlarining egasi sifatida shakllantirish.

**Millat -** (arabcha “millat”- halq) – kishilarning yagona tilda so’zlashishi, yahlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo’lishi asosida tarihan tashkil topgan barqaror birligi.

**Milliy an’analar -** Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo’ladigan tushunchalar, belgilar, hususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va hislatlarning avloddan-avlodga o’tish hamda meros bo’lib qolish tarzi.

**Milliylik -** Tarihan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya’ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy guruhlardan farqlovchi tomonlar, hususiyatlar, ma’naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.

**Milliy manfaatlar -** Millatga, milliy davlatga moddiy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar.

**Milliy ong -** Bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarihiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e’tiqodlari, madaniyati, boshqa halqlarning bevosita ta’siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy sohalarda faollik darajasi.

***Milliy ruhiyat*** – Millatning ichki holati, kechinmalari, his – tuyg’ulari, ma’naviy dunyosi, o’y – fikrlari, maqsad va malakalari hamda kayfiyatlari bilan bog’liq mulohazalar majmui.

**Milliy qadriyatlar –** Millatning g’oyalari, qadriyatlari, e’tiqodlari, ma’naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadini ifoda etadigan urf odatlar majmui.

**Milliy ruhiyat –** Millatning ichki holati, his – tuyg’ulari, ma’naviy dunyosi, o’y – fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog’liq mulohazalar majmui.

**Milliy til –** Kishilarning tarihan tashkil topgan barqaror birligi – millatning, elatning umumiy tili. O’zaro fikr almashish, muloqot vositasi.

**Milliy g’urur -** Har bir millatning o’z – o’zini anglashi natijasida sodir bo’ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Milliy g’urur mustahkam bo’lsa, millat vakillari orasidagi birlik ham kuchli bo’ladi.

**Mimika -** O’z fikri kayfiyati, sezgisini yuz muskullari harakati orqali aks ettirish san’ati.

| | |
|---|---|
| **Moddiy qadriyatlar –** | Insoniyatning yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy talabini qondiradigan barcha turdagi narsalar va ashyolar yig'indisi. |
| **Muallim –** | Muayyan fan yuzasidan ta'lim berishga vakolatli, ta'lim – tarbiya bo'yicha oliy, mahsus tayyorgarlikdan o'tgan, pedagogik va psihologik bilim, ko'nikma, malakalarni va talab darajasidagi mahoratni egallagan, ta'lim-tarbiya, usul, vosita uslubi asosida o'z metodikasi, ishlash qobiliyatiga ega ma'naviy etuk shahs. |
| ***Muammo*** – | Ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatning, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat. |
| ***Muammoli vaziyat*** – | Talabaning ma'lum psihik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. |
| **Muomala -** | YAhshilikka sabab bo'lgan ishlarda mayinlik, shirinso'zliq, yoqimtoylik asosidagi munosabat. |
| **Murakkab malaka -** | Kasb mahoratining asosini tashkil etib, bilim, boshlang'ich malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular asosida shakllanadi. Murakkab malaka shakllanishi shahsda kasb mahoratini paydo bo'lishiga imkon yaratadi. |
| ***Muhit*** – | Kishiga ta'sir etadigan tashqi voqelik. |
| ***Nutq qobiliyati*** – | Nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati |
| ***Ogohlantirish*** – | Noma'qul hatti – harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladigan vosita |
| ***Odat*** – | Halqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi. «Odat» so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi |
| **Odob –** | Hulq-atvor, yurish-turish madaniyatining tashqi jihatini ifodalaydi. |
| **Odob - ahloq -** | SHahsdan o'ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi hatti – harakatlarning belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shahs shakllanadigan manba hisoblanadi. |
| ***Oila*** – | Kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy – madaniy organizm. |

| | |
|---|---|
| **Omil-** | Bir guruhga kiruvchi kamida ikkita ilk mahsul boisdan tashkil topgan ahamiyatli sababdir |
| **Pantomimika -** | Gavda, qo'l, oyoq harakati. |
| **Pedagogik aksiologiya –** | Ta'lim, tarbiya va shahs rivojlanishidagi (pedagogik) qadriyatlarni o'rganadigan pedagogika bo'limi. |
| **Pedagogik jarayon –** | Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir. |
| **Pedagogning mehnati –** | Bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni. Ko'pdan – ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va talabalar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. |
| **Pedagogik reyting-** | Ta'lim ta'lim muassasasilarida o'qituvchining faoliyati, dasturi, o'quv rejasi, obro'sini baholovchi individual raqam ko'rsatkichi. |
| **Pedagogik tajriba –** | O'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy faol ravishda o'zlashtirish hamda real sharoitlarni, talabalarning jamoasi, shahsning o'ziga hosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tadbiq etishdir. |
| **Pedagogik tehnika –** | O'qituvchining o'quv faoliyatida o'qitishdan tashqari zarur bo'lgan, umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. |
| **Pedagogik qarama –qarshiliklar –** | Pedagogik amaliyot jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, qonuniyatlar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shahsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir. |
| **Pertseptsiya** – | Qabul qilish, sezish, ob'ektiv borliqning sezgi organlari orqali aks etishi. |
| **Reyting** – | Hodisalarni diagnostika (tashhis) yo'li bilan o'lchash; fikr va bahoni tanlash. |
| **Rivoyat –** | Hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janri. |
| **Salohiyat-** | Aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi. |
| ***Sezgi*** – | Kishini o'rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarning ongimizda aks etishidir. |

| | |
|---|---|
| ***Siyosiy madaniyat*** – | Umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning, davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z hatti – harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati. |
| **Suhbat –** | Pedagogik muloqot usullaridan biri; u evristik, individual, ahborot, mustahkamlash usullaridan farq qiladi. |
| **So'rov, so'roq –** | Faqat o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat. |
| ***Tabiat*** – | Eng muhim estetik tarbiya vositasidir. |
| **Talab –** | Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga nisbatan shahsiy munosabatining namoyon bo'lishidir. |
| ***Takomillashuv*** – | Qarama – qarshiliklarning birligi va kurashuvidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z – o'zidan harakatlanishdir. |
| ***Tanbeh berish*** – | Eng engil jazo chorasidir. |
| **Tarbiya -** | Keng qamrovli tushuncha bo'lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tarihiy tajribalarni etkazish borasidagi faoliyat, shahs shakllanishiga uzluksiz, maqsadga muvofiq, izchil ta'sir etish orqali mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali, unumli mehnatga tayyorlashdir. Tarbiya ta'limsiz amalga oshmaydi. Ta'lim berishdan maqsad, uning izidan tarbiya berishdir, ya'ni ta'lim orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatiladi. |
| **Tarbiyalovchi (ta'lim)** – | Dunyoqarashni shakllantiruvchi, ahloqiy, estetik tasavvurlarni va e'tiqodni shakllantiruvchi ta'lim. |
| **Tarbiyaning asosiy qonuni –** | O'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berishda amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. |
| **Tarbiyaning maqsadi –** | Jamiyatning alohida shahsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o'ziga hosligi va fazilatlari, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, ahloqiy , estetik rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishidir. |

| | |
|---|---|
| **Tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari -** | O'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayot, shahsning o'ziga hosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analaridir. |
| **Tarbiyaviy muhit –** | Inson shahsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shahslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir birini boyitishi va muvofiq kelishidir. |
| **Tarbiyalash uslublari –** | Jamiyatda qabul qilingan hatti-harakatlar, muloqot, munosabatlar tizimi va talablarini talabalar ongiga singdirishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir. |
| *Tarbiya qoidasi* – | Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yahshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir |
| **Ta'lim -** | Insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilimlarni tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan fan, tehnika, ahloq, madaniyat va san'atni o'zlashtirishga qaratilgan mahsus, uyushtirilgan faoliyat, o'qitish va o'qishdir. Ta'lim turlari ko'p: ahloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, tehnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, siyosiy ta'lim va hokazo. |
| **Ta'limning tarbiyalovchi harakteri** – | O'qitish jarayonida talabalar orttirgan bilim va ko'nikmalar bilan ularning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarini rivojlantirish orasida bog'lanishlarga erishilishini ta'kidlovchi pedagogik qonuniyat. |
| **Ta'limda faollik** – | Ta'lim jarayonida talaba shahsining faolligi, ta'lim jarayonining sub'ekti ekanligini aks ettiruvchi didaktik jarayon. |
| **Tizim -** | YUnoncha "systema" so'zidan olingan bo'lib, bo'laklarda hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. YA'ni yahlit, butunlikda faoliyat ko'rsatma oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir. |
| **Test** – | Aniq pedagogik tadqiqot uchun ishlatiladigan so'rovnoma, sinalayotgan talabaning psihologik va intellektual tavsifi, uning bilim, tushunish, uddalash, ko'nikmalarini o'lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshiriqlar. |

| | |
|---|---|
| **Texnologiya-** | Ashyo yoki yarim homashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, hossasi, husiusiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi. |
| ***Tushuntira olish qobiliyati*** – | O'quv materialini talabalarga tushunarli tilda bayon eta olish, talabalarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir |
| **Umuminsoniy qadriyatlar** | Barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma'naviy hazinadan iborat bo'lib, milliy qadriyatlar bilan tarbiyaviy asosga egadir. |
| **Umumpedagogik tayyorgarlik –** | Pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish, psihologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik va o'zini tuta olish, boladan hamda yoshlardan yoshiga ko'ra rivojlanishidan, asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, talabalardan individual o'ziga hosliklari, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir. |
| ***Uslub*** – | Ma'lum o'quv materiallarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir. |
| **Usul (usul) –** | Falsafiy va ilmiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli: voqelikni amaliy va nazariy jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan, ma'lum tarzda yo'naltirilgan usul va tajribalar yig'indisi. |
| **Xalq pedagogikasi –** | Avloddan-avlodga og'zaki ijod namunalarida o'tib kelayotgan, tarihiy, iqtisodiy, ijtimoiy muhit ta'sirida to'plangan, to'planayotgan va hayot tajribasida juda ko'p sinalgan pedagogik qarashlar, bilim, ko'nikma, malakalar keltirib chiqargan tarbiyaning usul, uslub va uslubiyatlaridir. |
| **Huquqiy tarbiya –** | Talabalarda huquqiy madaniyatni, qonunga bo'ysunuvchanlik hatti-harakatlarini shakllantirish. |
| **SHahs -** | Ijtimoiy va shahslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. SHahsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif - uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir. |
| **SHahsning aqliy sifatlari -** | SHahsning aqliy jihatdan Yoshlar ittifoqiga etishuvi, uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon |

| | |
|---|---|
| | bo’lishi. Bu darajaga olib boruvchi sifatlar: bilag’onlik, ob’ektivlik, fikrlovchilik. |
| **SHahsni har tomonlama kamolga etishi –** | Ma’lum bir real tarihiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo’lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to’liq va batamom rivojlanishidir. |
| **Ekologik tarbiya –** | Talabalarni ekologik (atrof –muhit muhofazasi) bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan ahloqiy-estetik, oqilona ekologik hatti-harakatlar ko’nikmalarini, ekologik tafakkurni hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirish. |
| ***Estetik did*** – | SHahsda uning shahsiy va ijtimoiy hususiyatlarining qo’shilishi natijasida hosil bo’ladigan murakkab hodisadir. |
| ***Estetik ideal* –** | Bu shahsning tabiat, jamiyat va san’atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go’zallik borasidagi bahosining aks etishidir. |
| ***Estetik tarbiya*** – | San’atdagi, tabiatdagi qurshab olgan hayot voqeligidan go’zallik vositalari asosida tarbiyalash, insonni garmonik tarbiyalash vositasidir. |
| ***Estetik tuyg’u*** – | Bu shahsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishidir. |
| **O’z-o’zini anglash –** | Sub’ekt (shahs) tomonidan ob’ektiv, real, hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning sub’ektiv qiyofasi, obrazini yaratish va o’z hatti-harakatlari hamda faoliyatini o’z-o’zidan boshqaruvini o’zida namoyon etadigan, o’zini boshqalar bilan taqqoslash imkonini beruvchi ong shakli |
| ***O’qitish* –.** | O’qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda talabalarning ma’lumot olishi, o’quv, ko’nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi |
| **O’qish -** | Talabaning kishilar tajribasidan bilib olgan qonuniyatlarni o’zida aks ettirishdir. |

## АДАБИЁТЛАР

### III. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари:

1.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 488 б.
2.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 592 б.

### IV. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар

3.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
4.Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Таълим тўғрисида”. 2020 йил 23-сентябрь. https://lex.uz/docs/-5013007
5.Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни.
6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4732-сонли Фармони.
7.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар

стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
8.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 2022 — 2026-йилларга Мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 60-сонли Фармони.
9.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги 5789-сонли Фармони.
10.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли Фармони.
11.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон Фармони.
12.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 февралдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2752-сонли қарори.
13.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли қарори.
14.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сонли қарори.
15.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 15 сентябрдаги ПҚ-3276-сонли қарори.
16.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли қарори.
17.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 26 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 278-сонли Қарори.
18.“Узлуксиз маънавий тарбия Концепцияси” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31.12.2019 йилдаги 1059-сонли Қарори.

**Ш. Махсус адабиётлар**

1.Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. - 420 б.
2.Иноятов У.И. ва бошқ. Педагогика: нопедагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарслик.-Тошкент: ТДПУ – 2013. – 256 б.
3.Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Тошкент:

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. – 193 бет.
4.Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Тошкент: Voris – Nashriyot, 2006 – 263 б.
5.Маҳкамов У.И., Маматқулова З.М. Малака ошириш жараёнларида ўқитувчиларнинг педагогик тафаккурини ривожлантириш.Монография.-Т.: “Фан ва технология”, 2017. - 180 б.
6.Мирсолиева М. Ибрагимова Г. Таълим технологиялари ва педагогик маҳорат. Методик тавсиянома. Т.: - 2015. – 105 б.
7.Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.
8.Муслимов Н.А ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креатив асослари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 120 б.
9.Муслимов Н.А ва бошқалар. Web технология асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 120 б.
10.Муслимов Н.А. ва бошқалар. Педагогика назарияси. Ўқув-услубий мажмуа.Т.: “Фан ва технологиялар” - 2011. 356 б.
11.Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Ниҳол” нашриёти, 2013.–279б.
12.Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Accoun 2015. - 134 pp.
13.Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.
14.William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 edition 2015. - 350 pp.
15.English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Book 1,2.
16.Ғозиев Э. Психология методологияси. - Т.: Университет, 2002 й. 198 б.

17.Ғозиев Э. Умумий психология. 1, 2-китоб. - Т.: Университет, 2002 й. 212 б

18.Ғозиев Э., Мамедов К. Касб психологияси. - Т., 2003. 183 б.

19.Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология. - Т.: ТДПУ, 2002. 218 б.
20.1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. / Методик қўлланма. Ғ.Шоумаров ва бошқалар. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2014. – 280 б.
21.Толипов У.К., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 205 б.
22.Толипова Ж.О. Педагогик квалиметрия. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2015.
23.Сарсенбоева Р. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув-услубий мажмуа.Т.: “ТМИ” - 2018. 474 б.
24.Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. – Книга 1. – Челябинск, ЧГПУ, 2012 – 411 с.

25.Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. – Книга 2. – Челябинск, ЧГПУ, 2012 – 496 с.
26.Яковлева Н.Ф. Я47 Проектная деятельность в образовательном учреждении [Электронный ресурс] учеб. пособие. – 2-е изд., стер. – М.: ФЛИНТА, 2014. - 144с.
27.Кох М. Н. Основы педагогики и андрагогики: учеб. пособие / М. Н. Кох, Т. Н. Пешкова. – Краснодар: КубГАУ, 2015. – 90 с.
28. Корниенко Е.Р. Педагогика: учебное пособие для иностранных студентов/Е.Р. Корниенко. – Архангельск: Изд-во Северного государственного медицинского университета, 2015. – 147 с.

## IV. Интернет сайтлар

www.edu.uz.-Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг портали.

www.bimm.uz -Бош илмий-методик марказининг электрон портали.

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.tdpu.uz

## TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

| **1.Guruh yig'ilishlarining birinchi turi** |
|---|
| *Yig'ilish – munozara |
| Amaliy yig'ilishlar |
| Tashkiliy mavzuiy yig'ilishlar |
| YAkuniy yig'ilishlar |

| **2.Tarbiyaviy rejalarni qanday rejalashtirilgan maqqul?** |
|---|
| Xaftalik |
| CHoralik |
| YArim o'quv yili uchun |
| *O'quv yili uchun |

| **3.Guruh rahbari birinchi navbatda qanday ishni amalga oshiradi?** |
|---|

| |
|---|
| Guruhda dars beruvchi o’qituvchilarning o’quv tarbiyaviy ishlarini o’zaro muvofiqlashtirish |
| O’quvchilar jamoasini ishini yo’naltiradi |
| *O’qituvchilar va o’quvchilar jamoasi faoliyatini muvofiqlashtiradi |
| Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boradi |

| |
|---|
| **4.Guruhdagi barcha tarbiyaviy ta’sirlarni tashkil qilish, rag’batlantirish hamda kompleks yondashishni amalga oshiruvchi maorif xodimi** |
| O’qituvchi |
| *Guruh rahbari |
| Tarbiyaviy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari |
| Direktor |

| |
|---|
| **5.SHaxsni jamoada tarbiyalash pedagogikaning etakchi tamoyili nimadan boshlanadi?** |
| Jamoada o’z-o’zini boshqarish organini rivojlantirishidan |
| Jamoani  vujudga keltirishdan |
| *Jamoani birlashtirish |
| Jamoa faoliyatini tashkil qilishdan |

| |
|---|
| **6.O’quvchilar jamoasidagi anqanalaridan elng birinchi anqanalar qaysilar?** |
| Katta guruh o’quvchilarining kichik guruh o’quvchilar ustidan otalik qilish |
| *Tug’ilgan kunlarni bayram qilish |
| YOzuvchilar bilan uchrashuvlar |
| Sevimli qaxramonlar bilan  uchrashuvlar |

| |
|---|
| **7.Guruh rahbari vazifalarini belgilab beruvchi xujjat** |
| «Ta’lim to’g’risida» gi qonun |
| *«Guruh rahbarining ishi» to’g’risidagi uslubiy xat |
| O’rta umumta’lim maktablarining ustavi |
| O’quv dasturi |

| |
|---|
| **8.Maktabning o’z-o’zini boshqarishda qanday tashkilot asosiy o’rinni elgallaydi?** |
| *O’quvchi ko’mitalari |
| Ota-ona ko’mitasi |
| Psixologik xizmat |
| Metod birlashma |

| |
|---|
| **9.Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzgandan keyin birinchi navbatda kimlar bilan muxokamadan o’tkazadi?** |

| |
|---|
| Parallel guruhdagi hamkasblari bilan |
| Guruh faollari bilan |
| Maktab rahbariyati bilan |
| *Ota-onalar faollari bilan |

| **10.Amaliyotda qo'llanilayotgan ish rejasining tuzulishi qaysi bo'limdan boshlanadi?** |
|---|
| Tarbiyalash vazifalaridan |
| Tarbiyaviy faoliyat tuzumidan |
| *Tarbiyaviy ishlarning mazmuni |
| Guruh tavsifnomasidan |

| **11.Guruh rahbarining rejasi qaysi bo'limlardan boshlanishi tavsiya qilinadi?** |
|---|
| *O'qishga ongli munosabatni shakllantirish |
| Ahloq va huquqiy tarbiya |
| Mehnat tarbiyasi va kasbga yo'llash |
| ELstetik tarbiya |

| **12.Ota-onalar bilan ishlash guruh rahbaridan qanday munosabatni dastavval o'rgatishni talab qiladi?** |
|---|
| *Izchil va qatqiy elqtiborni |
| CHidamlikni |
| Pedagogik nazoratni |
| Ishonch munosabatini o'rgatishni |

| **13.Ota-onalar jamoasining elng katta organi** |
|---|
| *Ota-onalar qo'mitasi |
| Ota-onalar yig'ilishi |
| Ota-onalar majburiyati |
| Ota-onalar vakolati |

| **14.Ota-onalar qo'mitasining ishini kim boshqaradi?** |
|---|
| Maktab direktorii |
| Tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari |
| *Komissiya raislari |
| Qo'mitaning raisi |

| **15.Oila tarbiyasida elng muhim yo'nalish** |
|---|
| Mehnat tarbiyasi |
| Nafosat tarbiyasi |

| |
|---|
| *Ahloqiy tarbiya |
| Jismoniy tarbiyasi |

| **16O’qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi birinchi tadbir** |
|---|
| *O’quv qo’llanmalari asosini yaratish |
| O’qishlar uchun zarur bo’lgan moddiy bazani yaratish |
| O’quv qurollari bilan taqminlash |
| Doimiy ish joyini moslashtirish |

| **17Guruh rahbari bir yilda necha marta faollar kengashini o’tkazadi?** |
|---|
| 2 marta |
| 4 marta |
| 3 marta |
| *Har chorakda |

| **18O’quvchining uyiga borilganda guruh rahbari asosan qaysi qoidaga elqtibor qilishi kerak?** |
|---|
| *Xushmuomilada bo’lish |
| O’quvchidan norozilik bildirmaslik |
| Qoloqlik sabablarini axtarishga intilish |
| Meni gapim gap deb turib olish |

| **19Tarbiya jarayonida maqsad va vazifalar chegarasi** |
|---|
| Bir necha maqsad va vazifa |
| Bir vazifa bir qancha maqsad |
| *Bir maqsad va bir necha vazifa |
| Vaziyatga qarab bir necha maqsad va vazifalar |

| **20Tarbiyani maqmuriy elxtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo’yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasidagi o’zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o’zgartirish nima deb ataladi?** |
|---|
| Tarbiyada insonparvarlik, tarbiyani demokratlashtirish |
| Tarbiyada tarbiyaviy ta’sirlarning uyg’unligi |
| *Tarbiyada uzluksizlik |
| Barcha javoblar to’g’ri |

| **21Tarbiya murakkab jarayon sifatida birinchi navbatda kimlar qatnashadilar?** |
|---|
| O’qituvchilar |
| *Ota-onalar |
| Jamoatchilik |

| |
|---|
| Tarbiyachilar |

| **22Tarbiya qoidalarida birinchi navbatda tarbiyaning qaysi jihati o’z ifodasini topadi?** |
|---|
| Tarbiyaning usullari |
| *Tarbiya usullariga qo’yiladigan talablar |
| Tarbiya qoidalari |
| Tarbiyaning mazmuni |

| **23Tarbiyaviy ish qanday jarayon xisoblanadi?** |
|---|
| O’quv jarayonida amalga oshiriladigan |
| Vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan |
| *Uzluksiz |
| Doimiy |

| **24Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o’zaro ta’sir ko’rsatishi tarbiya nazariyasida nima deb ataladi?** |
|---|
| Tarbiya qoidasi |
| *Tarbiya qonuni |
| Tarbiya usuli |
| Tarbiya jarayoni |

| **25Guruh rahbari rejasini tuzishda unga qo’yiladigan asosiy talablar nimadan boshlanadi?** |
|---|
| *Tarbiyaviy vazifalarning to’g’ri va aniqligi |
| Bilim berish va uyushtirishni optimal qo’shib yuborish |
| Ishda istiqbollik va dolzarblikni qo’shib yuborish |
| Pedagogik rahbarlik va o’quvchilar faolligini birligi |

| **26O’quvchi shaxsiyatini aniqlash usullari** |
|---|
| Anketalar orqali |
| *Og’zaki savol-javoblar |
| Maktab rahbari |
| Test orqali |

| **27O’quvchi tarbiyaviy soatlarini o’tkazish usullari** |
|---|
| Anketa suhbat usulida |
| *Tarbiyaviy ahamiyatga elga bo’lgan qiziqarli stsenariy asosida |
| Kundalik yangiliklar bilan tanishtirish |
| Reja asosida o’tkazish |

| **28O’qituvchining o’quvchiga qo’ygan talablari** |
|---|
| Dars qoldirmaslik va kechikmaslik |
| *Maqsuliyatlilik va faollikni oshirish |
